

Samarqand Davlat Universiteti

Kasbiy ta'lim fakulteti

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrası

5110800 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi

(bakalavriat) ta'lim yo'nalishi

**Qalamtasvirda avtoportret ishlash va uni o'qitish
metodikasi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: **Ziyodullayeva Visola**

Ilmiy rahbar: o'qit. Sh. Oydinov

Samarqand-2016

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

KASBIY TA'LIM FAKULTETI

“TASVIRIY SAN'AT VA MUHANISLIK GRAFIKASI” KAFEDRASI

Ziyodullayeva Visola Faxriddin qizi

QALAMTASVIRDA AVTOPORTRET ISHLASH VA UNI O'QITISH
METODIKASI

(KHKlari tasviriy san'at darslarida)

5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi

(bakalavriat) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko'rildi va himoya

qilishga ruxsat berildi

“Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi” kafedrası

mudiri, o'qituvchi

_____ Sh. Oydinov

«_____» _____2016 y.

Ilmiy rahbar o'qituvchi

_____ Sh. B. Oydinov

«_____» _____ 2016 y.

Taqrizchilar: o'qituvchi.

_____ J. Rahmatov

Samarqand 1-son pedagogika

“Tasviriy san'at” kafedrası

mudiri: _____ A. Mustafoyev

Ushbu bitiruv malakaviy ishi YaDAK ning 2016 yil “_____” _____dagi
_____ xulosasiga asosan _____ baholandi.

Ya DAK raisi:

A'zolari:

SAMARQAND-2016

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Rassomlar tamonidan yaratilgan san'at asarlarini ko'rganimizda, ijodkorning peshona teri, qalb qo'ri, mehrining tafti bilan yaratilgan serjilo asarlaridan tasirlanamiz. Tasvirlash sirlarini qanday o'zlashtirgani bilan qiziqamiz. Imkoni bo'lsa bunday mahorat bilan chizilgan tasviriy san'at asarlarini qo'lga kiritish istagi ham paydo bo'ladi. Shuningdek "Ustoz ko'rmagan shogird - har maqomga yurg'alar" deb bejiz aytilmagan bo'lsa kerak. Tasviriy san'at sirlarini o'rganishda ustoz murabbiylarni ham o'z o'rni bor.

Tasviriy san'at o'qituvchisi boshqa fanlar o'qituvchilari kabi birinchi navbatda eng yuksak fazilatli ahloqiy pok, imon va e'tiqodli, halol va sofdil, yoshlarga nisbatan mehribon, o'zbek xalqining urf – odatlari, an'alarini yaxshi biladigan shaxs bo'lishi kerak.

1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. U ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligini qayd etadi.

O'tmishda ota-bobolarimiz tasviriy san'at, amaliy san'at va xalq hunarmandchiligida yuksak darajaga yetishganligining sabablaridan biri ajdodlarimiz usta-shogird an'analari asosida yoshlarga hunar o'rgatganlar va ular nihoyatda boy tajribaga ega bo'lganlar. O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli asarida "Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islahotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi an'alarimizning

saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir", deb takidlab o'tgan edilar.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'lim tarbiya jarayoniga berilayotgan e'tibor diqqatga sazavordir. Bo'lajak o'qituvchilar ham yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda bu imkoniyatlardan unumli foydalanmog'i kerak. Tasviriy san'at inson aql idrokining kengaytrib uning tevarak atrof munosabatini o'stiradi. U iqtidorli va istidotli yoshlarni shakillanuvi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Shu kabi kishi qalbida go'zallik hislarini, ezgulikni, tabiatga, Vatanga bo'lgan muhabbatni oshiradi.

Mikelanjeloning "Qalamtasvir — barcha ilmlarning ildizi va manbayidir" deb yozganligi bizga yozma manbalardan ma'lum. Qalamtasvir tasviriy san'atning tilidir. Qalamtasvirni mukammal o'zlashtirmasdan yetuk muyqalam sohibi bo'lish mumkin emas. Shuningdek portret janri eng murakkab bo'lgan janrlardan hisoblanadi. Qalamtasvirda avtoportretlar ishlash esa bu portret san'atni egallashga yordam beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'limdagi barcha ishlar komil inson ma'naviyatini rivojlantirish bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Zamonaning ilg'or kishilari safida bo'lish masalasi ham bugun dolzarb. Mana shunday muammolarni bartaraf etishda qalamtasvirda rasm ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab va kollejlarda tasviriy san'at, xalq amaliy san'atini o'qitish va uning metodikasi masallari bilan ko'plab olimlar shug'ullanib kelishgan. Shulardan professor R.Xasanov, S.Bulatov, M.Nabiyev, B.Boymetov, dosentlar B.Oripov, A. Turdialiyev, B.Azimova, O. Hudayorova, Q. Qosimov, X.Egamov, S. F. Abdirasilovlar tasviriy san'at ta'limining metodik yo'nalishini tadqiq qilganlar. Tasviriy san'at va amaliy san'at bilan ta'lim - tarbiya birligini yechimi bo'yicha ham ancha ishlar amalga oshirib borilgan. Tasviriy va amaliy san'at, rasm chizish va uni o'qitish masalalari bo'yicha rus rassomlari, olimlari va metodistlaridan professor V.S.Kuzin, A.P.Fomicheva, Y.V.Shoroxov, N.N.Rostovsev, B.P.Yusov,

B.M.Neminskiy, V.N.Fedorovlarning ko'plab asarlari mavjud. Shuningdek, O'zbekistonda kasb-hunar ta'limining tasviriy va amaliy san'at sohasiga oid masalalar bilan olimlardan B.Boymetov, A.Abdurasulov, N.Tolipov, B.Oripov, A.Turdialiyev, U.Nurtoyev kabilar metodika bo'yicha darsliklari va metodik ishlanmalar yaratdilar.

Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida qalamtasvirda rasm ishlash haqida ma'lumotlar berib borish talabalarining dunyo qarashini har tamonlama kengayishiga yordam beradi.

O'zbekiston tasviriy dastgoh san'ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi. Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Bizning rassomlarimiz ko'pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar, manzara, natyurmort, portret va boshqa. Natyurmortda bozorlarimizning to'lib toshgan noz-ne'matlarini, manzara janrida esa, o'lkamizning go'zalligini va bepoyonligini, oddiy tabiat ko'rinishidagi go'zallikni to'laqonli ifodalashga harakat qilganlar. Shu bilan birga qadimdan qolgan butun dunyoga taniqli ajib me'morchilikning nodir yodgorliklarini o'z asarlarida ko'rsatdilar. Portret janrida esa Vatanimizning ilg'or kishilarini, mehnatkash xalqni, shoir, rassom, musiqachilarni tasvirladilar. Bizning O'zbekiston Vatanimiz ajoyib iste'dodli rassom va haykaltaroshlarni yetkazib berdi. Bular ichida Iskandar Ikromov, Chingiz Axmarov, Malik Nabiyeu, Mannon Saidov, Damir Ro'ziboyev, Ilxom Jabborov, Javlon Umarbekov, Baxodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonov, Ne'mat Hakimov, Osimxon Vosixonov, Temur Sa'dullayev, G'ofur Abduraxmonovlar alohida mavqyega ega.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi: Kollejlarning tasviriy san'at darslarida mavzuli rasm chizishning samarali usullarini ishlab chiqish.

- Qalamtasvirda portret chizishning umumiy tomonlari.
- Rasm ishlashda tasvirlashning asosiy qonun-qoidalaridan foydalanish.

- Bosh shaklini chizish jarayonida qalamtasvirning ahamiyati.
- Portret ishlashni o'rganishda plastik anatomiyaning ahamiyati.
- Qalamtasvirda avtopartret ishlash va o'qitish metodikasi.
- Qalamtasvirda avtoportretni bosqichlar asosida chizish usullari.
- Qalamtasvirda avtoportret ishlashning shakl va usullari.

Tadqiqot obyekti: Kasb - hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida mavzuli rasm chizish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Kasb - hunar kollejlarda tasviriy san'atning mavzuli rasm chizish darslari.

Tadqiqot metodlari: Nazariy tahlil, kuzatish, dars o'tish va o'rganish.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

- Qalamtasvirda portret chizishning umumiy tamonlari o'rganilsa.
- Rasm ishlashda tasvirlashning asosiy qonun-qoidalaridan foydalanilsa.
- Bosh shaklini chizish jarayonida qalamtasvirning ahamiyati o'rganilsa.
- Portret ishlashni o'rganishda plastik anatomiyaning ahamiyatidan foydalanilsa.
- Qalamtasvirda avtopartret ishlash va o'qitish metodikasidan foydalanilsa.
- Qalamtasvirda avtoportretni bosqichlar asosida chizish usullari o'rganilsa.
- Qalamtasvirda avtoportret ishlashning shakl va usullari o'rganilsa.

Tadqiqot yangiligi: Kasb hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida qalamtasvirda avtoportret ishlash mavzusida rasm chizish dars soatlarini takomillashtirish va yangi usullarda dars olib borish dars ishlanmalari tayyorlanganligi va rasm kompozitsiyasining tasvirlanganligi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

- Qalamtasvirda portret chizishning umumiy tomonlari o'rganilgani.
- Rasm ishlashda tasvirlashning asosiy qonun-qoidalaridan foydalanilgani.

- Bosh shaklini chizish jarayonida qalamtasvirning ahamiyati o'rganilgani.
- Portret ishlashni o'rganishda plastik anatomiyaning ahamiyatidan foydalanilgani.
- Qalamtasvirda avtopartret ishlash va o'qitish metodikasidan foydalanilgani.
- Qalamtasvirda avtoportretni bosqichlar asosida chizish usullari o'rganilgani.
- Qalamtasvirda avtoportret ishlashning shakl va usullari o'rganilgani.

Tuzilishi; Kirish, ikki bob besh fasl, umumiy xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib 73 betni tashkil etadi.

I bob Qalamtasvirda portret chizishning umumiy tomonlari.

1.1. Adabiyotlar tahlili.

1) 1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. U ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligini qayd etadi.

2) Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. 174 b. Prezidentimizning ushbu asarida ma'naviyat tushunchasi, insonning ichki dunyosi, bugungi kunda insonlarda ma'naviy mafkurani shakllantirish, Sharq mutafakirlarining ma'naviyatni shakllantirish borasidagi fikrlari, mustaqillik davrida amalga oshirilgan ishlar, oilaning jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda oila, mahalla va maktabning ma'naviyatni shakllantirishdagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Shaxs shakllanishida ma'naviyatning o'rni ajdod va avlodlarimizning ma'naviy merosidan foydalanish, xayotda o'z o'rnini topish, madaniyat va san'atning naqadar kerakligini o'qtirib o'tiladi.

3) I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T., "O'zbekiston", 2000. 386 b. Prezidentimizning ushbu asarida "Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi an'alarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir", deb takidlab o'tgan edilar.

4) M. Nabiyeu. Rangshunoslik T., "O'qituvchi", 1995. 22-b. Mazkur qo'llanma muallifning ko'p yillik pedagogik faoliyati hamda rangtasvir bo'yicha amaliy ish tajribalari asosida yozilgan. Qo'llanma ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda rangshunoslik fani asosida rangning fizik, kimyoviy,

psixofiziologik va estetik xususiyatlari yoritilgan. Ikkinchi qismida esa tasviriy san'atning asosiy turlaridan biri – rangtasvir texnologiyasini bilish metodikasining nazariy va amaliy jixatlari bayon etilgan.

5) N. Oydinov. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T., "O'qituvchi", 1997. 53-b. Qo'llanmada tasviriy san'atning tur, janrlari va Ozbekiston hududida mavjud bo'lgan o'ziga xos tarixdan lavhalar hikoya qilinadi. Bir qator devoriy suratlar, haykallar kabi tasviriy san'at namunalari tahlil qilinib berilgan. Bundan tashqari talaygina rassomlarning ijodi, hayoti haqidagi ma'lumotlar bilan tanishsa bo'ladi.

6) S. Uralov. Mo'jiza yaratish san'ati. T., "Mehnat", 1996. Qo'llanmada amaliy va tasviriy san'atning nodir turlari haqida hikoya qilinadi. San'atimiz jilolari – rasm chizish san'ati, haykaltaroshlik, metalga qayta ishlov berish – kandakorlik, naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, gilam to'qish kabi san'at turlari joy olgan.

7). R. Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. T., G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. 2009. 86 bet. Bu asarda tasviriy san'atning asosiy manbalari haqida gap boradi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi, turlari va janrlari to'g'risida atroflicha hikoya qilingan. Rassomlar va ularning asarlari tahlillari ham beriladi. Asarlarning rangli, rangsiz suratlari keltirib o'tilgan. Shuningdek grafika, rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik san'ati haqida fikrlarini bayon qiladi. Tasviriy san'at tarixiy taraqqiyoti to'g'risida ham to'xtalib sharq va g'arb uyg'onish davrini ba'tafsil yoritib beradi.

8). O'zbekiston san'ati. "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T., 2001.4-98-betlar. O'zbekiston san'ati kitobi O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10-yilligiga bag'ishlanadi. Unda 1991-2010 yillardagi O'zbekiston san'atida erishilgan ulkan yutuqlar haqida hikoya qilinadi. Kitobning 1 bobda me'morchilik, tasviriy va amaliy san'atga bag'ishlangan. Me'morchilik qismida O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatidagi

faoliyati davomida qilingan milliy me'morchilik va shaharsozlik sohalaridagi yangi yutuqlar haqida ma'lumotlar keng yoritilgan.

9) S.F.Abdurasulov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., "ILM – ZIYO", 2011. 154-b. O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining ilmiy-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. O'quv qo'llanma pedagogika kollejlarning maxsus o'quv fani — «Tasviriy san'at metodikasi» dasturi asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanmada «Tasviriy san'at metodikasi» fanining maqsad va vazifalari, ilmiy tadqiqot bosqichi va metodlari, mashg'ulotlarning mazmuni va metodikasi, sinfdan tashqari ishlar mazmuni kabi masalalar o'z aksini topgan. Shuningdek, pedagogika kollejlari talabalari uchun tasviriy san'at metodikasi va dars turlari hamda uning mazmuni haqida ma'lumotlar, o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari bayon etilgan.

10) B. Boymetov. Qalam tasvir. T. "Musiqqa nashriyoti", 2006. 28-b. Nizomiy nomidagi TDPU ning Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. Qalamtasvir nomli darsligida tasviriy san'atning asosi hisoblangan qalamtasvir fani bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmuni yoritilgan. Xususan, kitobdan qalamtasvirning nazariy asoslari, tasviriy san'atda perspektiva, kompozitsiya qonunlari, chiziqli konstruktiv qurilish, yorug'-soya qonuniyatlari, odam bosh suyagi va muskullarining plastik anatomiyasi, badiiy ta'limda qalamchizgi bajarishning o'ziga xos xususiyatlari va boshqalar o'rin olgan. Darslikda berilgan vazifalar talabalarning bilim va malakalarini hisobga olgan holda oddiydan-murakkabga usulida ishlab chiqilgan.

11) Shoxalil Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston mimiyatursi. T., "O'zbekiston", 2006. 25-b. Ushbu kitob-albomda mamlakatimizda miniatyura san'atining yuz yillardan so'ng tiklanishi, mustqillik yillaridagi rivoji, bu borada erishilgan yutuqlar haqida misollar orqali hikoya qilinadi. Kitob o'quvchini Sharq miniatyura san'ati tarixi hamda yetishib chiqayotgan miniatyurachi san'atkorlar va

ularning asarlari bilan tanishtirgani holda, ushbu soha mutaxassislari va O'zbekiston miniatyura rangtasviri bilan qiziquvchilar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

12) B.T. Maxmudov. Rangtasvirda kompozisiya. T., 2009. 14-b. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va Dizayn institutining 2009 yil 25 martda o'tkazilgan Ilmiy kengashi tamonidan nashrga tavsiya etilgan. Kompozisiya tushunchasi va tajribasining qisqacha tarixi, kompozisiyaning asosiy qonunyatlarini, kompozisiyaning qoida, usul hamda vositalari, kompozision qonun-qoidalari va boshqalar yoritib berilgan.

13) S.S.Bo'latov. Rangshunoslik. T., O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti 2009. 35-b. Unda amaliy va tasviriy san'atni o'rganish uchun kerakli bo'lgan rangshunoslikga oid bilim va tushunchalar keng yoritib berilgan.

14) R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. Toshkent, 2004 yil. 200-bet. Kitobida yangi pedagogik texnologiyada dars o'tish masalasiga qisman to'xtaladi. Unda ko'proq turli o'yin usullarini, krasvord, topishmoq suratlar haqida fikr yuritib uni dars jarayoniga olib kirish mumkin deydi. Bu metodik kitob tasviriy san'at ta'limida o'qiyotgan talabalar va o'qituvchilari uchun tayyorlangan. Bunda tasviriy san'at o'qitish metodikasining talablari va darslarni olib borish, tashkil etish, tarixi haqida fikr yuritilgan. Ko'pgina hollarda noananaviy darslar, ishlanmalar, krasvord, testlar ham keltirib o'tiladi.

15) N. Oydinov. Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. T., "O'qituvchi", 1997.44-b. O'zbekiston tasviriy san'at tarixi, zamonaviy rassomlar ijodiy faoliyati, ta'lim muammolarini yechish borasidagi ilmiy-falsafiy risolalar hamda dastur, qo'llanma va ko'plab maqolalar bilan tanishilgan.

Biz o'rgangan adabiyotlarning hammasida tasvirlash va o'rgatish haqida fikrlar beriladi. Adabiyotlarda tasviriy san'at asarlarini yaratilishi va tasvirlash yo'l-yo'riqlari ko'rsatilib o'tilgan.

1.2. Rasm ishlashda tasvirlashning asosiy qonun- qoidalaridan foydalanish.

Tasviriy san'at qonun qoidalari asosida chizilgan rasmlar har tomonlama ko'rkam va chiroyli chiqadi. Shuning uchun rasm chizish jarayonida tasviriy san'at qonun-qoidalarini mukammal egallagan bo'lish kerak.

Rasm chizish mashg'uloti tasviriy san'atning asosi bo'lib, tabiatdagi barcha obyektlarning fazoviy shakllar tekislikda yoki sirtlarda tasvirlashdan iborat. Bunda tasviriy vosita bo'lib asosan chiziqlar va shtrixlar, ya'ni turli yo'g'onlikdagi chiziqlarning kesmalari xizmat qiladi. Chiziq hosil qiluvchi qurollarga qalamlar, mo'yqalamlar, bo'r, ko'mir, pastel, flamaster, pero, hamda kesish, tirnash o'yib olish bilan chiziqlar hosil qiluvchi asboblar kiradi.

Rasm chizish - tasviriy san'atning eng qadimgi turi hisoblanadi. Ibtidoiy odamlar tig'li buyumlar bilan tosh va g'or devorlariga turli xil tasvirlarni chizganlar. Eng qadimgi avlodlarimiz so'zlashuv qobilyati yuzaga kelgunga qadar hayvolarni rasmini tasvirlash orqali o'z tasavvuridagi fikrlarni bir-birlariga bayon qilganlar barori kelgan ovdan tasirlanib, o'zlari bilmagan holda kelajak avlodlar uchun nishonalar qoldirganlar.

Rasm chizishni o'rganish rassom, haykaltarosh, grafikachi, me'mor, dizayner, dekorativ san'at ustasi mutahassisligining asosiy qismini tashkil etadi.

Rasm chizish texnikasini egallash gravyura, haykaltaroshlik yoki tasviriy san'atning boshqa turlaridagidek murakkab texnik ijroni talab qilmasada, baribir ko'p chizish, o'rganish kerak bo'ladi. Lekin rasm chizishni barcha xohlovchilar ham o'rganib olishlari mumkin. Buning uchun qiziqish va ishtiyoq, qunt va toqat bo'lsa bas. Bunday qiziqarli va maroqli mashg'ulotni rasm chizishga ishtiyoq bilan to'lib toshgan bolalikdan boshlansa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Rassomlar rasm chizish uchun asos bo'lgan har bir obyektning odam va barcha jonivorlarni, uy-ro'zg'or va texnika buyumlarni, me'morchilik binolari va qurulish inshootlarini, tabiat va borliqning boshqa elementlarini natura deb ataydilar.

Rasm chizish uchun kerakli narsalar taxt qilinib, naturalar tanlangan bo'lsada chizishni boshlashga shoshilmaslik kerak. Avvaliga qalamni to'g'ri ishlata bilishni o'rganish, rasmda asosiy ma'no va ifodani ochib beruvchi chiziqlar to'g'risida qisqacha ma'lumot olish natura kompozitsiyasini to'g'ri tanlay bilishni o'rganishni tavsiya etiladi. Rasm chizishda chiziq va chiziqchalar asosan qalamni ikki xil usulda ishlatish bilan bajariladi.

Rasm chizishda chiziqlar bir joyda qalin holda ishlatilsa, bora-bora bu chiziq ingichka bo'lib, keyin ko'zga ko'rinmay yo'qolib borishi mumkin. Naturalarning shakllariga mos to'g'ri yoki egri chiziqlar uning tashqi ko'rinishini bo'rttirib hajmga ega ekanligini ko'rsata boradi. Go'yo tekis qog'ozda u bo'rtliq shaklga ega bo'lib boradi.

Qalamtasvirda yaxshi natijalarga erishish uchun, tasvirlashning asosiy qonun qoidalarini puxta egallash zarur bo'ladi. Shu sababli qalamtasvirda ishlashning asosiy qonun - qoidalari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Perspektiva qonuni. Tasvirlanayotgan buyum, ushbu buyum qaysi tomonidan tasvirlanishidan qat'iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chekkadan), chizuvchiga o'zgarib ko'rinadi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlari perspektiv o'zgarib ko'rinishini kuzatamiz. Temir yo'l relslari, simyog'ochlar va kenglikdagi boshqa shakllarning bizdan uzoqlashgan sari kichrayib, bir nuqtada tutashini ko'rishimiz mumkin. Hayotda o'zaro parallel bo'lgan relslar hech qachon to'qnashmasalarda, perspektiva qonuniga binoan, ular bizdan uzoqlashgan sari bu holatni kuzatishimiz mumkin. Bu perspektiva qonuniga asosan sodir bo'ladi.

Buyumlarni tekislikda haqqoniy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojaat qiladi. Bu holatni shunday ta'riflash mumkin: «Tabiatdagi

barcha buyumlar qanday shaklga ega bo'lmasin, perspektiva qonun va qoidalariga bo'ysunadi».

Perspektiva qonunlarini mukammal o'rganib, har qanday buyumning ko'rinar va ko'rinmas tomonlarini to'g'ri tasvirlash mumkin. Perspektiva qonunlarining asosiy xususiyati shundaki, buyumlar qanday kattalikda bo'lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekislikda qanday joylashganiga qarab perspektiv qisqaradi.

O'z navbatida, perspektiva qonuni haqqoniy tasvirlash «alifbo»laridan bo'lgan «surat tekisligi», «buyum tekisligi», «ko'rish maydoni», «ko'rish nuqtasi», «ufq chizig'i» kabi qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Surat tekisligi deb tasvirlanayotgan natyurmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassom orasidagi bo'shliqqa aytiladi.

Fizologik nuqtai nazardan qaraganda, yorug'lik chizilayotgan buyumga tushganda, rassomga buyumning u yoki bu qismi ko'rinadi. Shundan keyingina rassom uni idrok etib, tasvirlashga o'tadi. Surat tekisligi rassom bilan natura o'rtasida vosita bo'lib xizmat qiladi.

Buyum tekisligi deb tasvirlanayotgan buyum joylashgan tekislikka aytiladi. Stol, pol, yer va boshqa chizish uchun bajariladigan moslama buyum tekisligi vazifasini o'tashi mumkin.

Ko'rish maydoni va ko'rish burchagi chizuvchining ko'rish vaqtida tasvirlanayotgan buyumni qamrab olishidir. Tasvirlanayotgan ob'yekt uzoqlashib borgan sari ko'rish maydoni ham kengayib boradi, bu esa tasvirlanayotgan ob'ektning barcha qismlarini aniq ko'rish va tasvirlashga imkon yaratadi. Lekin, ob'yektdan juda katta masofada turib, undagi hamma bo'laklarni va hajmlarni to'laqonli tasvirlash ancha qiyin. Aksincha, tasvirlanayotgan ob'yektga yaqin masofada turib ham ushbu ob'yektning hamma qismlarini ko'z bilan ilg'ab olish mushkin. Tasvirlash jarayonida chamalash orqali masofani to'g'ri tanlay olish, ko'rish maydonini to'g'ri belgilash rassomdan mahorat talab etadi. Ko'p hollarda

rassomlar tasvirlanayotgan predmet kattaligining 3 hissa ko'paytirilganiga teng masofada turib rasm chizadilar.

Ufq chizig'i deb, ko'z balandligidan o'tadigan nurga aytiladi. Qog'ozni gorizontal holatda ko'zimiz darajasigacha ko'tarib, ufq chizig'ini aniqlashimiz mumkin.

Ufq chizig'i har doim ko'z nuri balandligidan o'tad. Agar biz yuqoriga chiqsak u biz bilan ko'tariladi. Pastga tushsak ufq chizig'i ham pastga tushadi.

Fazoviy perspektiva deb buyumlarning fazo (bo'shliq) ta'sirida o'zgarib (qisqarib) ko'rinishiga aytiladi. Fazo-tiniq muhitdir. Lekin uning tiniqligi tabiatning turli hodisalari ta'sirida o'zgarishi mumkin. Masalan: havo namligi, atmosfera bosimining o'zgarishi, havodagi chang-to'zon ta'siri, havo bulutli ekanligi va boshqalar. Shuning uchun tasvirlanayotgan ob'ektning fazo bo'shlig'ida qanday joylashgani rang, nisbat, tus va undagi alohida bo'laklarning yaqqol yoki xira ko'rinishlariga keskin ta'sir etadi.

Fazo perspektivasi ob'yektning kunning qaysi vaqtida tasvirlanayotganligi ertalab, kunduzi, kechqurun yil fasllari bahor, yoz, kuz hamda atmosfera o'zgarishiga quyoshli yoki bulutliligiga qarab ham o'zgaradi.

Fazo perspektivasining bir necha asosiy qoidalari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Rassomga yaqin bo'lgan buyumlar yaqqol, uzoqdagilari esa umumiy ko'rinadi. Tasvirda fazoni sezdirish uchun yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda tasvirlash kerak.

2. Fazo bo'shlig'ida kengligida joylashgan buyumlar chizuvchidan qanchalik uzoqda joylashgan bo'lsa, shunchalik xira ko'rinadi. Tasvirda fazoviy perspektivani to'g'ri ko'rsatish uchun uzoqda joylashgan buyumlarni biroz yengil, oldingi qatordagi buyumlarni esa yaqqol tasvirlash kerak.

3. Yaqin masofada joylashgan buyumlar fazoda yaqqol hajmli bo'lib ko'rinadi, uzoqdagilari esa xiraroq ko'rinadi. Tasvirlashda ham ushbu tartibga rioya qilmoq zarur.

4. Chizuvchidan uzoqroq joylashgan buyumlar atmosfera bosimi ta'sirida siyohrang, havorang va och tusda ko'rinadi. Fazo perspektivasini yanada kuchliroq ko'rsatish uchun yaqin masofada yaqqol ko'rinib turgan buyumlarni aniq, uzoqdagilarini esa ochroq tusda tasvirlash darkor.

5. Oldingi qatorda joylashgan buyumlar haqiqiy o'z tusida rangida, uzoqdagilari esa xira bo'lib ko'rinadi. Fazoviy perspektivaning bu qonuni rassomga yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda, xiraroq qilib tasvirlashni talab etadi.

Fazo perspektivasining ushbu qonun-qoidalariga rioya qilish talaba uchun juda muhim. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalarga talaba, qanday vazifa bajarishidan qat'iy nazar portret, natyurmort, manzara va hokazo, amal qilishi shart.

Chiziqli konstruktiv tuzilish. Tasvirlanayotgan buyum sodda yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar, u konstruktiv tuzilishga ega. Konstruksiya so'zi - tuzilish (qurilish) ma'nosini anglatib, rassom buyumni tasvirlashda bu qonunga amal qilishi lozim. Buyumni haqqoniy tasvirlash uchun uning chiziqli konstruktiv tuzilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Har qanday buyumni tasvirlashda chiziqli konstruktiv tuzilishga rioya qilish kerak.

Buyumning konstruktiv tuzilishini chizish uning asosiy qismlaridan yordamchi chiziqlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Chiziqli konstruktiv tuzilish orqali buyumni to'g'ri tasvirlash perspektiva qonun-qoidalariga to'liq amal qilishni taqozo etadi. Gips ko'zaning hajmini to'g'ri chizish jarayonida buyumning asosi, bo'g'izi va yuqori qismi aylanalari, buyumning tekislikdagi holatiga asosan, perspektiv qisqarishini ko'ramiz. Demak, chiziqli konstruktiv tuzilish buyumning

chekka qirralarini kontur chiziqlar bilan yengil tasvirlashni, bizga ko'rinar-ko'rinmas tomonlarini asosli ko'rsatishni taqozo etadi.

Buyumlar hajmidan tashqari, balandligi va eniga egadir. Bunga buyumlarning nisbati deyiladi. Bir necha buyumlardan tashkil topgan qo'yilmaning o'z nisbatlaridan tashqari, katta-kichikligiga qarab, o'zaro nisbatlari mavjud. Realistik tasvirlashda buyumlar nisbatini to'g'ri aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Buyum nisbatlarini to'g'ri aniqlash va tasvirlash quyidagi usulda amalga oshiriladi. Masalan, oddiy ko'zani olaylik. Uning balandligi eniga nisbatan kattaligini aniqlash uchun qo'lga qalamni ushlab uzatgan holda rozetkaning kichik tomoninining o'lchamini qalamda bosh barmoq bilan belgilab, rozetka balandligiga qo'yib taqqoslaymiz. So'ngra ushbu topilgan nisbatni qog'ozda belgilaymiz. Shu usulda bir guruh buyumlardan tashkil etilgan natyurmort yoki boshqalarning o'zaro nisbatlarini to'g'ri topish mumkin.

Hajm xar bir buyum o'z hajmiga ega. Uning hajmi qismlari, balandligi, bo'yi va enining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar buyumning hajmi to'g'ri to'rtburchaklardan iborat bo'lsa, uning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir. Egri chiziqlardan tashkil topgan buyumlar (shar, konus, silindr va boshqalar) tekis yuzalilarga nisbatan ancha hajmdor hisoblanadi. Bu shakllar kontur chiziqlar vositasida chiziladi. Buyum shaklini aks ettirishda kontur chizig'ining ahamiyati katta. Buyumning tuzilishi, nisbatlari va boshqalarni tasvirlashda rassom kontur chiziqlardan foydalanadi.

Buyum to'g'ri to'rtburchakdan iborat bo'lsa kub, piramida, prizma va boshqalar, uning hajmi to'g'ri chiziqlar vositasida chiziladi. Uning konturlari egri chiziqlardan iborat bo'lsa, hajm ellips, aylana shakllar orqali tasvirlanadi.

Buyumni hajmdor tarzda tasvirlash unga to'g'ri tus berish orqali bajariladi. Qirrali buyumlarda, masalan, kub hajmini to'g'ri tasvirlashda ko'pincha talabalar xatoga yo'l qo'yadilar. Talabalar kubning hajmini yorug'-soyalar vositasida bajarish jarayonida uni yanada yorqinroq aks ettirish uchun kubning qirralarini

kontur chiziq bilan alohida bo'rttirib ko'rsatadilar. Bu mutlaqo noto'g'ri. Tabiatda qirrali buyumlar bir-biridan tus jihatidan och va to'qligi bilan farqlanadi. Kub yoki boshqa qirrali buyumlarning soya qismidagi qirrasini yorug' qismidagi yuzadan tus jihatdan kuchliroq ekanligi bilan xarakterlidir.

Dumaloq shakldagi buyumlar hajmi ellips, aylana chiziqlar orqali chiziladi. Dumaloq hajmga ega buyumlarning ekvator qismi tus jihatdan kuchliroq tasvirlanadi

Qirrali buyumlarda bo'lgani kabi, sharsimon buyumlarning chekkalari ham quyuk konturda chizilmaydi. Uning turgan holatiga ko'ra yorug' va orqa fondagi soyalar chegarasi bor xolos.

Yevropa realistik tasviriy san'atidan farqli ravishda, sharq tasviriy san'ati o'zining betakrorligi bilan ma'lum va mashhur. Chunonchi, ustoz Kamoliddin Behzod tomonidan ishlangan Sulton Husayn Mirzo portretini olaylik. Ushbu portretning hajmdorligi yorug'-soya qonuniyatlariga va perspektiva qoidalariga rioya qilinib yaratilmagan bo'lsa-da, lokal chiziq va konturlar orqali rassom asar qahramonini mohirona tasvirlagan.

Qalamtasvirda texnik mahorat, nafaqat uzoq muddatli o'quv mashg'ulotlari, qisqa muddatli tasvirlar, qoramalar ishlaganda, balki grafika san'atining qadimgi yetuk namoyondalari asarlaridan nusxa ko'chirganda ham shakllanib boradi. Bizgacha yetib kelgan qalamtasvirning turli-tuman texnik uslublari asosan Italiya uyg'onish davridan ma'lum bo'lib, bu davr rassomlari tomonidan tush, turli xil rangli siyohlar, akvarel bo'yoqlari, Ko'mir qalamchalari va shu kabi tasvirlash vositalari keng qo'llanilgan. Quruq materiallardan ruxli, kumushli va shu kabi boshqa metall shriftlar, grafit qalamlar Italiya qalami, sangina, bo'r, pasteldan foydalanilgan. Mo'yqalam, o'rdak pati, qamish qalamchalar singari tasvirlash vositalarida grunlab tus berilgan turfa xildagi rangli qog'ozlardan keng ko'lamda foydalangan holda asarlar yaratganlar.

Agar rasm chizishni o'rganishni maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, bu maqsad yo'lida tinmay izlanish kerak. Chizilgan rasmlarni yaxshilab o'rganish, yaxshi chizadigan kishilar chizayotganlariga diqqat bilan kuzatish lozim.

Barcha manbalardan olingan pand-nasihat, yo'l-yo'riq va ko'rsatmalarga yondashib to'g'ri fikr chiqarishga o'rganish va bulardan xato kamchiliklarni tuzatishda foydalanish lozim. Rasm chizishni o'rganishda, albatta qalamtasvirda rasm ishlashning asosiy qonun-qoidalarini esdan chiqarmaslik kerak.

Qalamtasvirning barcha tur va janrlarida ijod qilishda albatta qalamtasvirdan olingan bilim va ko'nikmalar juda zarur bo'ladi. Buyuk mo'yqalam sohiblari haykaltaroshlar ham qalamtasvirdan unumli foydalanganlar. Bulardan Italiya uyg'onish davrining buyuk rassomlaridan Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, rus rassomlaridan Karl Bryullov, I. K. Ayvazovskiy, I. I. Shishkin, o'zbek rassomlaridan Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Bahrom Hamdamiy, O'ral Tansiqboyev, Malik Nabiyeu, Rahim Ahmedov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev va boshqa yana shunday ko'plab ijodkorlarni misol keltrish mumkin.

1.3. Bosh shaklini chizish jarayonida qalamtasvirning ahamiyati.

Hech qachon fikrlamay rasm chizmag,
har doim oldingizga maqsad qo'ygan
holda gapirib tasvirlang, bu yerdan –
bu yergacha". *P.P.Chistyakov*

Buyumlarni tasvirlash san'ati, boshqa aniq fanlar kabi, fikrlab chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni so'z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo etadi.

Odam boshining tuzilishi o'ta murakkab va ko'p qirralidir. Har bir odam boshining kalla suyagi tuzilishi va tashqi ko'rinishi, plastikasi o'zining betakror xususiyatlariga ega. Shu bilan birga boshning umumiy shakli, uning konstruktiv-anatomik asosi bir xilda bo'lgan tuzilish qonuniyatiga asoslanadi. Inson boshini to'g'ri tasvirlash uchun rasm chizuvchi uning shakli, kalla suyagining qismlari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni bilishi hamda tasvirlash jarayonida olgan bilimlarini qo'llay olishi kerak. Ushbu ko'nikmalarni o'zlashtirishi uchun u juda ko'p mashq qilishi zarur.

Boshning umumiy shaklini aniqlash, chiziqli – konstruktiv tuzilma hosil qilish va hokazo tamoyillarni o'zlashtirish uchun maxsus mashqlar kerak. Talabalar, odatda, bunga rioya qilmaydilar, ular uchun bu mashqning hojati yo'qdek ko'rinadi. Ularga maxsus mashqlar kerak emasdek tuyuladi va mazkur mashqlarni bosqichli rasmlar chizish paytida ham qilaversa bo'ladi, deb o'ylaydilar. Lekin bosqichli rasm chizish paytida bu rasmlarga ko'p vaqt ajratilmaydi va talaba uni o'zlashtirib ololmaydi. Natijada talaba ishni o'z holicha davom ettiraveradi va malakasi oshmay qolaveradi.

Bosh shakli tuzilishi qonuniyatlari va uni tasvirlash qoidalarini o'rganishda talaba, eng avvalo, tasvirlashning dastlabki bosqichida kechadigan tahlil usulini, boshning umumiy shaklini tasvirlashni o'zlashtirib olishi zarur. Garchi akademik

rasm chizishda ishning har bir bosqichi qisqa davom etsada, talaba maxsus mashqlar yordamida har bir bosqichni puxta o'zlashtirib olishi kerak. Quyida bosh shakli tuzilishini tahlil qilish va tasvirlash usulining mohiyatini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Bosh shaklini idrok qilishda ham rassomga yorug'lik yordam beradi. Nur bosh usti bo'ylab yoyilib, rassomga uning plastikasini ko'rish imkonini beradi. Dastlab bosh shakli juda tez, umumlashgan holda idrok etiladi: kalla go'yo shardek, bo'yin silindrik, burun prizmadek, ko'z sharsimon qobiqdek ko'rinadi. Faqat diqqat bilan qaragandagina rassom boshini yahlit ko'radi, ham uning qismlari plastik tavsifining nozik tomonlarini ilg'ay boshlaydi.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, inson dastlab predmetning umumiy shaklini, shundan keyingina uning bo'laklarini idrok eta boshlaydi. Ilmiy tadqiqot natijalari ko'rib idrok etish jarayoninig beshta asosiy bosqichini ajratib ko'rsatishga asos bo'ladi:

1. Predmetning fazodagi holati bilan uning umumiy nisbatlarini taxminiy baholash o'rtasidagi farqni ajratish.
2. Shaklni rakursda turishini bilish.
3. Perspektiv tomonlarining o'zgarishini farqlash.
4. Shaklni, uning detallari farqlanmay berilganda, bir xil umumiy tarzda idrok etish.
5. Shaklni uning detallari bilan to'liq holda idroklash.

Ko'rish idroki qonuniyatlariga rioya qilgan holda rasm chizuvchi, birinchi navbatda, boshning umumiy ko'rinishini tasvirlab, uning shakli-shamoyili xususiyatlarini ko'rsatishi zarur.

Uyg'onish davridayoq rassomlar ushbu zaruriyatni ko'rsatib o'tganlar. Masalan, Alberti "Rangtasvir to'g'risida uch kitob" asarida shunday yozadi: "Biz biror narsaga qarar ekanmiz, u fazoda ma'lum joyni egallab turganini ko'ramiz. Keyinchalik, ushbu jismga sinchiklab qarab, uning barcha ko'p sonli bo'laklari uyg'unlashib ketganligini seza boshlaymiz.

Har qanday predmetning shakli ko'p sonli yuzalardan iborat. Rasm chizuvchining vazifasi bu yuzalar ma'lum shaklni hosil qilgan holda o'zaro qanday uyg'unlashib ketganini to'g'ri tushunishdan iborat. Lekin bu shaklni qog'ozda to'g'ri tasvirlash uchun talaba katta, uch o'lchamli jismning real ko'rinishini ilg'ab olishi, ya'ni o'z idrokini fazodagi ko'rinish bilan qog'oz sirtidagi ko'rinishiga moslay ola bilishi kerak. Bosh shaklni tasvirlashga kirishishdan oldin chizuvchi, avvalo, perspektiva nazariyasini bilishi, tasvirlash jarayonida esa perspektiva qoidalaridan foydalana olishi zarur.

Oddiy geometrik jismning perspektiv tasvirini chizish unchalik qiyin emas, lekin odam boshi kabi murakkab shaklning perspektiv tasvirini chizish ancha murakkab ish. Shuning uchun ta'limning pedagogik prinsipi-oddiydan murakkablikka, umumiylikdan xususiylikka prinsipidir. Uyg'onish davri rassomlari boshni tasvirlashni o'rgatishda eng oddiy geometrik shakllarni qo'llashdan kelib chiqqanlar, ya'ni ham yaxlit bosh, ham uning har bir qismini geometrik asosda ko'rish va tasavvur qilishni o'rgatganlar. Rasm chizuvchi ana shu prinsipga amal qilib, boshning umumlashgan shaklni tasavvur qilishi kerak. Odam boshi shaklni tasvirlashni tahlil etish va chizishning bunday usulidan ko'p rassomlar foydalanganlar. Amaliyotda isbotlanganki, kesib ishlash usuli tasvirlashning perspektiv qurilishi qoidasini o'zlashtirib olishni ancha yengillashtiradi. Uyg'onish davridan keyin to hozirgacha bu usuldan rassom - pedagoglar foydalanib kelmoqdalar.

Yetuk rassom-pedagog D. Kardovskiy rasm chizish prinsiplari va o'qitish uslublari haqida shunday degan edi: "Xo'sh, shaklning o'zi nima? Bu geometrik jismlar, jumladan: kub, shar, silindr va hokazolardir. Ular u yoki bu xarakterga ega bo'lgan jismlardir. Tirik naturalarning shakllari, albatta, to'g'ri geometrik shakl bo'la olmaydi, lekin aslida ular ham ushbu geometrik shakllarga yaqin turadi."

Bosh tuzilishining umumiy shakli nima? Bu o'z ko'rinishi jihatidan tuxum shaklni eslatuvchi uch o'lchamli hajmli jismdir. Bosh rasmini chizishni

o'rgatishda hamma rassomlar diqqat-e'tiborini shakl qurilishining ana shu xususiyatiga qaratganlar. Preysler, Losenko, Sapojnikov, Kardovskiy va boshqalarning tajribasi shundan dalolat beradi. Rassom-pedagoglar odam boshini tasvirlashni o'rgatar ekanlar, ishni doim uning tuxumsimon shaklining tahlilidan boshlaganlar. A. Solovev, G.Smirnov, E.Alekseyeva bosh rasmini chizishni tuxumsimon massa tusini tasvirlashdan boshlashni tavsiya etganlar. Ustoz rassomlar boshlovchi rassomlarga dastlab boshning umumiy shaklini, shundan so'ng asta-sekin bo'laklarini tasvirlashni o'zlashtirib olishni tavsiya etganlar.

“Kesib ishlash” usuli qog'oz yuzasida bosh shaklining ham umumiy, ham tarkibiy qismlarini to'g'ri tasvirlashga yordam beradi. Bu usul talabalarning e'tiborini tashqi bo'laklarga qoshlar, kipriklar va hokazo emas, balki katta shaklning asosiy mazmuniga qaratish imkonini beradi. Buni tushunib olish qiyin emasdek tuyulsa-da, uni rasmda ko'rsata olish ancha murakkab ishdir. O'tgan asrdagi fransuz rassomlari aka-uka Dyupyuilar bosh rasmini chizishni o'rgatishda shu usuldan foydalanganlar. Bosh shaklini tahlil qilar ekanmiz, umumiy ko'rinishda uning tuzilishi ma'lum qonuniyatlarga egaligini ko'ramiz.

Bosh shaklini hajmini tasvirlashda shu narsani nazarda tutish kerakki, boshning ikkita asosiy qismi mavjud. Bular : kalla suyagining sharsimon shakli va taqasimon jag' suyagi shaklidir. Ko'pchilik rasm chizuvchilar soqolli kishi boshini tasvirlashda bu xususiyatni unutadilar. Bu o'rinda dahan, ya'ni jag'ning pastki qismi kalla suyagidan uzoqlashib qolgandek, havoda muallaq turgandek tuyuladi. Rassom kalla suyagining umumiy tuzilishini hisobga olib, jag'ning ostki qismini kalla suyagining asosiy so'ngaklari bilan to'g'ri tutashtirishi lozim.

Bosh shaklini va uning tarkibiy qismlarini tahlil etishda davom etib, katta shaklni bo'rttirib chiqarish bilan bog'liq yana bir qancha qonuniyatlarni ko'rsatib o'tish zarur. Masalan, burun shakli asosida prizma yotadi. Burun shakli tuzulishining bu qonuniyatini bilgan rassom uchun uni qog'oz yuzasida tasvirlash endi unchalik qiyin emas. Rasmda burun shaklining perspektiv ko'rinishini berish

ancha murakkab ish. Prizmaning perspektiv ko'rishini chizish hatto, boshlovchi rassomga ham unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Bundan tashqari, shakl va uni yuzada ifodalashning bunday tahlil usulidan foydalanish rassomga shakl tus jihatidan ham hal etishga yordam beradi. Qog'oz sirtidan to'rt yuza bilan chegaralangan burun prizmasini belgilab olgan rassom darhol tus alomatlari – nur, soya, yarim soyalarni ajratib oladi va shundan so'ng o'ziga qarab burun xarakterini aniqlaydi va shaklning mayda bo'laklarini modellashga kirishadi. Ko'z shakli shar shakli bilan bir xil va uning maxsus adabiyotlarda “ ko'z soqqasi”deb yuritilishi bejiz emas. Lekin bosh rasmini chizishda shuni hisobga olish kerakki, ko'z soqqasining uchdan bir qismigina tashqarida ko'rinadi. Bundan tashqari, ko'z soqqasi va ko'z kosasiga o'tishda qovoqlar mo'tadillasha boshlaydi va shakl ishlash bosiqroq bo'lishi kerak.

“Kesib ishlash” usulidan foydalanib tasvirlash rasm chizuvchida eng asosiy narsani ko'ra bilish, ko'ringan narsani mantiqan idrok etish va mazkur plastik obrazni ochiq tasavvur etish malakasini orttiradi. Agar rassom bosh shakli xususiyatlarini idrok eta olmasa va tasavvur qilmasa, faqat o'z tuyg'ulari bilan cheklansa, u holda u naturadan passiv tarzda nusxa ko'chirishga, tashqi ko'rinishni shunchaki o'xshatib qo'ya qolishga majbur bo'ladi. Rassom obrazli tasavvur qilib ishlamas ekan, umumlashtira olmaydi. Idrok etish nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bunday tasavvur borliqdan olingan surat, naturaning umumlashgan obrazidir. Rasm chizish san'atini egallashda “kesib ishlash” usulining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi faqat badiiy amaliyotda emas, balki psixologiya – pedagogika fanlari tomonidan ham isbot etilgan. “Kesib ishlash” usuli rassomga tasvirlashning uslubiy bosqichlarini o'rgatibgina qolmay, balki realistik san'at “tili”ni egallashga ham yordam beradi. Talaba yuzaning kenglikdagi yo'nalishini aniqlash va uni rasmda to'g'ri ifodalashga intilganda u ob'ekt obrazini grafika vositalari bilan yaratishni o'rganadi, binobarin, rasm “tili” ga ega bo'ladi.

Lekin rasmda tahlil va ifodalash usulini o'rganish talaba uchun ko'pincha qiyinchilik tug'diradi. U "katta shakl" tuzilishining umumiy ko'rinishini tasvirlar ekan, odatda, boshning chiziqli tashqi ko'rinishini chizish bilan cheklanib qoladi, na bosh shaklining xarakteri va na uning hajmini o'rganmay turib, bir yo'la bo'laklarini tasvirlashga o'tib ketadi. Shu bois u shakl asosini yuzaga chiqarmay turib, detallarini-burun, ko'z, lablarni chiza boshlaydi. Shuning uchun ham, yuqorida aytib o'tganidek, "kesib ishlash" usuli bilan katta shakl ifodasini berish yo'lini o'zlashtirib olish uchun maxsus mashqlar qilish zarur bo'ladi. Rassom oynaga qarab o'z rasmini chizsa, bu usul yaxshiroq o'zlashtiriladi. Bu o'rinda diqqat tortadigan mayda detallarni ko'chirishdan voz kechib, faqat hajmning asosiy massasini chizishga e'tiborni qaratish, iroda va berilgan vazifani bajarishga ishonch hissi talab etiladi.

Rassom qalamtasvirda boshning asosiy shaklini tasvirlashni o'rganib olgach, shakl tarkibini yanada chuqurroq o'rganishga o'tadi. Odam boshining shakli juda murakkab va u konstruktiv asos bilan belgilanadi. "Konstruksiya" deyilganda biz "tuzilish", qismlarning o'zaro joylashuvi, shakl tarkibini, "konstruktiv jihatdan uyg'un" deganimizda yaxshi tasvirni nazarda tutamiz. Odam boshini tasvirlashda muvaffaqiyat qozonish uchun shaklning konstruktiv jihatdan ko'rinishini ko'rish va uni rasmda ifoda etish qonuniyatlarini bilish kerak.

Odam boshi shaklining chiziqli-konstruktiv tasviri quyidagilardan iborat: dastlab tussiz va yorug' soyasiz chiziqlar bilan boshning umumiy shakli tasvirlanadi. Shundan so'ng boshning old qismi ustidan profil chizig'i o'tkaziladiki, bu chiziq uchta teng qismga ajraydi va bu chiziqlar ustidan sochlar qoplamasi, qosh usti yoylari, burun va dahan asosi konstruktiv chiziqlari o'tkaziladi. Zarur mo'ljallar belgilangandan so'ng bosh detallari: burun prizmasi, ko'zlarning sharsimon shakllari, lablar va dahanning umumlashgan shakllarini belgilab olamiz. Bularning hammasi zarur tuzatishlar kiritilishi mumkin bo'lgan bitta chiziq bilan tasvirlanadi. Shaklning konstruktiv asosini tasvirlashda qo'l keladigan chiziqlar rassomga shakl qurilishi qonuniyatlarini to'g'ri qo'llashga

yordam beradi. Chiziqli-konstruktiv tasvirni belgilab olib, diqqat bilan butun bosh va uning har bir qismi shakllari xarakteriga aniqlik kiritishni boshlanadi. Chiziqli konstruktiv rasmni chizish paytida yorug'lik manbai o'rnini almashtirsakda, shaklning konstruktiv asosi o'zgarmaydi.

Bosh shakli konstruktiv qurilishi sxemasini yaxshi bilib olgan bo'lajak rassom keyinchalik tirik boshning akademik rasmi va ijodiy portretni chizishda hech qiynalmaydi. Bosh shakli konstruktiv qurilishi qonuniyatlarini mustahkam egallab olishi uchun yoshlarga chiziqli-konstruktiv qurilish bo'yicha maxsus topshiriqlar bajaritirish katta ahamiyatga ega. Bosh shakli tuzilishining chiziqli-konstruktiv tasvirini bajarish borasida beriladigan maxsus topshiriqlar talabalarga o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi, ularni rasm chizish paytida doimiy ravishda fikrlash va mulohaza yuritishga o'rgatadi, yorug'-soyalarni ko'r-ko'rona, passiv ko'chirishdan qaytaradi. Chunki bunday mashqlar yordamida rasm chizuvchi shakl tuzilishi doimiylikicha qolishini tushuna boradi.

Bosh shakli tuzilishi qonuniyatlarini to'liq va har tomonlama o'ragnish uchun talaba bunday topshiriqlarni nafaqat naturadan, balki xotiradan, tasavvurdan bajarishi zarur. U amaliyotda bunday mashqlar zarurligiga ishonch hosil qilishi, shaxsiy tajribasida realistik rasm san'atini egallashda ular qay darajada yordam berayotganligini his qilishi kerak. Bunday mashqlar talabaning anatomik bilimini chuqurlashtirishi bilan birga ijodiy qobiliyatini ham shakllantiradi.

1.4. Portret ishlashni o'rganishda plastik anatomiyaning ahamiyati

Qalamtasvir, yoki chizgilar san'ati ham rassomchilik, ham haykaltaroshlik, ham me'morchilikning yuqori nuqtasi bo'lib hisoblanadi; qalamtasvir — barcha ilmlarning ildizi va manbayidir.

Mikelanjelo

Tasviriy san'at janrlari ichida portret janri eng murakkab janr hisoblanadi. Shu sababli yaxshi rasm chizish xohlovchilar ko'p rasm chizishlari bilan birgalikda portret san'atini a'lo darajada o'zlashtirish uchun unga ta'luqli bo'lgan bilimlarni mukammal o'zlashtirish lozim. Mana shunday o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar sarasiga tana a'zolarining nisbatlaridir. Plastik anatomiya tana nisbatlarini o'rganishining ikki yo'nalishi ko'rsatilgan: inson tanasi tuzilishini estetik idrok etish va uni anatomiya nuqtai nazaridan baholash, shuningdek, amaliyotda qo'llash qulay bilishi uchun barcha o'lcham va munosabatlarni bir tizimga tushirish.

Nisbat — bu qismlarning o'zaro va butun tasvir bo'yicha o'lchamlari tizimidir va u tasvirga estetik ifoda va mukammallik uyg'unligini baxsh etadi. Nisbatni his eta olish - bu rasm chizish jarayonidagi eng zarur bolgan xususiyatlardan biri. Chizilayotgan jismning nisbatlari qanchalik to'g'ri aniqlansa, rasm shunchalik asl ko'rinishiga yaqin bo'ladi. Odam tanasi nisbatlarini o'rganish bo'yicha maxsus qonun-qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular yordamida tananing har bir alohida qismini bir tizim holatiga keltirish mumkin. Ushbu qonunlarni tuzish uchun inson tanasi haqidagi ma'lumot doimo muhim bo'lgan. Qonun rassomlar uchun naturaga qaramasdan model tasvirini chizishda qo'l keluvchi vosita bo'lishi bilan bir qatorda, tana jismlari bir-biri bilan uyg'unlashuvchi insonning ideal obrazini yaratish yo'lidagi harakat bo'ldi deyish mumkin.

Turli tarixiy davrlarda go'zallik va mukammallik haqidagi tasavvur o'sha davr rassomlarining mafkuraviy qarashlari asosida namoyon bo'lgan.

Ular o'z asarlarida o'sha davr, xalq va sinflar dunyoqarashini aks ettirganlar.

Qadimgi davrlardan inson tanasining o'lchov birligi — moduli bo'lib tananing biror bir qismi bosh, kaft, barmoq, to'piq, burun tanlab olingan va unga boshqa barcha qismlar solishtirilgan.

Qadimgi davrlardan Misrda ham rassomlar inson tanasini tasvirlashga katta e'tibor berganlar. Natijada Misr rassomlari inson tanasining har bir qismini o'lchab, o'rganib, uning asosida qonun ishlab chiqdilar. Bunda ular inson tanasi qismlarini o'lchashda matematik hisob-kitoblardan foydalandilar. Qonunning yaratilishida Misr rassom-nazariyotchilari qomatning qismlarga nisbiy bo'linishi tizimini ishlab chiqdilar. Unga ko'ra qismlar yordamida butun tanani va bir qism o'lchami bilan ikkinchi qism o'lchamini aniqlash imkoni paydo bo'ldi. Misrshunos olim Lepsiusning tadqiqotlari natijasida ushbu raqam siri ochildi. Misr qonuniga ko'ra o'lchov birligi sifatida qo'lning o'rta barmog'i uzunligi qo'llanilgan. Qomat 19 qismga bo'lingan.

Qadim Misrda inson tanasining nisbiy munosabatlarini ishlab chiqishda yosh bolalar va o'smirlarni hisobga olishmagan. Rassom ayol, erkak va bolalarning rasmini bir qonun asosida, faqatgina o'lchamini o'zgartirib ishlagan. O'lchamlarning katta kichikligida insonning ijtimoiy nufuzini ham ko'rsatishda foydalanilgan. Shu sababli ham fir'avn yoki mashhur insonning rasmi qullar rasmiga qaraganda bir necha bor katta qilib ishlangan. Qadimgi Misr sanati umuman ko'rinishda sinfiy tabaqalarni ifodalashga qaratilgan edi.

Shuni ta'kidlash lozimki, qadimgi Misr rassomlari bir tasvir doirasida jismga turli nuqtai nazar bilan yondoshganlar: masalan, tananing ba'zi qismlari old tomondan bosh, oyoq, shu paytning o'zida boshqa qismlar ko'zlar, elka yon tarafdan tasvirlangan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, qadimgi Misr asarlarining o'ziga xos jihatlari ham bo'lgan. Qadimgi Misr asarlari ko'p asrlar davomida bir rangda, boshqa tus va ranglardan foydalanmasdan siluet da zalligini o'rganib, ulardan shunchalik ko'p go'zallik va nafosat topganlarki, natijada ular ma'budlar timsolini ham inson tasvirida ishlay boshlaganlar.

Qadimgi davrlardan yunon inson tasvirini tasviriy san'atning bosh bo'g'ini sifatida ta'riflab, inson tanasining barcha qismlarini sinchkovlik bilan o'rganib

chiqqanlar. Ular inson tanasi tasvirini ishlashda an'anaviy qonundan foydalanib, san'atda yangi muammoni ilgari surganlar va uning yechimini o'z asarlarida ko'rsata olganlar. Ularning ta'kidlashlaricha, jahonda qonun-qoida hukmronlik qiladi va go'zallik mohiyati ma'lum tartib asosida simmetriya, qismlarning o'zaro va butun jism bilan uyg'unlashuvi, hamda matematik munosabatlar natijasida vujudga keladi.

Uyg'onish davri nafaqat tasviriy san'at 'rivoji tarixi uchun, balki umuman rasm chizish usullarini o'rganish sohasi uchun ham yangi davr bo'ldi. Bu davrda realistik rasmlar ishlashga, borliqni haqiqiy ko'rinishini tasvirlashga ishtiyoq tug'ildi. Uyg'onish davri ijodkorlari tabiat qonunlarini ochib berishga intildilar, hamda san'at va fanni bir-biri bilan bog'lash vazifasini o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Ularni qadimgi Gretsiya san'ati ruhlantirdi. Tasviriy san'at muammolari ustida mashhur rassomlardan Aberti, Leonardo da Vinchi, Dyurer va boshqalar ishladilar. Barcha san'atlarning durdonasi bo'lmish rassomchilikka bo'lgan hurmat e'tibor yana tiklandi.

Leonardo da Vinchi asosiy e'tiborni inson tanasi rasmini chizishga qaratdi. Bunda u qomatni to'g'ri shakllantirish, uning muvozanat o'qini aniq topish va harakat xususiyatini to'g'ri ko'rsatib berish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu shart bajarilganidan so'ng, tana nisbatlarini aniqlashga kirishishi kerak.

Nemis rassomlari Albrect Dyurer va Shonning nazariy qarashlari juda ahamiyatli bo'lib hisoblanadi: ularning asarlari tasviriy san'at mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasini rivojlanishiga turtki bo'ldi. Dyurer asarlari insonparvarlik tuyg'ulari bilan sug'orilgan. Dyurerning eng ahamiyatga molik asarlardan biri - «Inson tuzilishi nisbatlarini o'rganish» nomli asar bo'lib, u rassomning deyarli butun ijodiy hayotining asosi desak xato bo'lmaydi. Dyurer ushbu masala bo'yicha barcha mashhur g'oyalarni keltirib o'tgan va ko'plab rasm va chizgilar orqali ularga ilmiy izoh ham bergan. Rassom o'z ijodiy faoliyati davomida inson tanasining tuzilishini matematik hisob-kitoblar, hamda geometrik shakllar orqali tasvirlash yo'llarini izlab topishga intilgan.

Uyg'onish darvriining ko'pchilik rassomlari — Rafael, Jovanni Paolo Lomatstso, Mikelanjelo va ularning izdoshi Jan Kuzen va boshqalar tananing qismlarga ajralishi qoidalari ustida ish olib borganlar. Lomatstso qonuniga asosan tana balandligining o'nta qismga bo'linishining o'ziga xos afzalliklari shundan iboratki, bunda tasvir anatomik nuqtalar bilan ko'p hollarda mos keladi. Ushbu qonun uchta tenglikni olg'a suradi: burun asosi - kindik; kindik — tizza bo'g'imi hamda tizza bo'g'imi va yer yuzasi, qo'llar yoyilganda tana uzunligiga teng bo'ladi. Yelkadan o'rta barmoqqacha bo'lgan qo'l uzunligi yuz uzunligining to'rt barobariga teng. Qonunning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda bo'yinning uzayishi hisobiga tana asosining qisqarishi ko'rsatilgan Mikelanjelo o'zining mashhur rasmlaridan birida bosh balandligini tananing 1/8 qismiga teng, tizza qopqog'ining chekkasini esa tos suyagi va oyoq uchining o'rtasi deb ta'riflangan.

Jan Kuzen bosh balandligining 1/4 qismini o'lchov biriligi modul sifatida qo'llaydi. Unga ko'ra butun tana uzunligi 32 modulga teng.

Rus rassom-pedagoglaridan A.P.Losenko va V.K.Shebuevlar nisbatlar ta'limotini ishlab chiqdilar. A.P.Losenko inson tana uzunligini sakkizta bosh va o'nta yuz balandligiga teng deb ko'rsatadi.

Losenko tananing kichik qismlarini o'lchab chiqishga intildi va bu albatta o'ta aniqlikni talab etardi.

XIX asrda olimlar va rassomlar antropologiya va statistika ilmlarining rivojlanishi natijasida inson tanasi va uning qismlari o'lchamlarini to'g'ri aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada anatomiya va antropologiya sohasi vakillari anatomik jihatdan asoslangan yangi qonunlarni ishlab chiqdilar va ularda tananing turli qismlari modul sifatida qo'llanildi.

Inson tanasi nisbatlari to'g'risidagi to'liqroq ma'lumot haykaltarosh Gottfrid Shadovning (1764-1850) «Poliklet yohud jins va yoshga ko'ra inson tanasi nisbatlari» nomli asarida o'z ifodasini topgan.

Erkak kishi rasmida quyidagi muvozanat nuqtalari orasidagi tenglikka amal qilingan: bosh cho'qqisi — engak — so'rg'ichlar chizig'i, so'rg'ichlar chizig'i —

kindik, kindik — jinsiy a'zoning pastki qismidan o'tuvchi chiziq, jinsiy a'zo — boldirning yarmi, boldirning yarmi — tizza bo'g'imi.

Ayol kishi tana balandligi bosh balandligining $7 \frac{1}{2}$ qismiga teng. Bosh balandligiga teng bo'lgan masofa tananing yuqori qismidagi quyidagi tayanch nuqtalarni to'g'ri aniqlashga yordam beradi: bosh cho'qqisi — engak, engak — so'rg'ichlar chizig'i, so'rg'ichlar chizig'i — kindik, kindik — sonlarning o'rta birlashgan qismi. Tana balandligining yarmi taxminan tos suyagining yuqori qismi hisoblanadi.

G.Shadovning inson tanasi nisbatlarini o'rganishga qo'shgan yana bir hissasi shundan iboratki, u insonning yoshidan kelib chiqib nisbatlarning o'zgarishini kuzatgan. Morfologik tadqiqotlar asosida metrik ma'lumotlar o'rnatilgan va ularning natijalari alohida tasviriy did bilan ishlangan rasmlarda kuzatilishi mumkin.

Bolalarning tana nisbatlari yoshga ko'ra o'zgarib boradi. Yangi tug'ilgan chaqaloq boshining balandligi tana balandligining $\frac{1}{4}$ qismiga teng, qo'llarning uzunligi tananing $\frac{2}{5}$ qismini, oyoqlari esa $\frac{1}{3}$ qismini tashkil etadi. Go'daklarda kindik—tananing o'rtasi balog'atga yetgan insonlarda tananing o'rtasi tos suyagining yuqori qismiga to'g'ri keladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning bosh kengligi tos qismi kegligiga teng bo'ladi.

Yosh ulg'ayishi bilan tana nisbatlari ham o'zgarib boradi. Bunda bir tomondan butun tana va uning a'zolari kattalashadi, ikkinchi tomondan esa tananing alohida qismlari o'rtasidagi munosabat ham o'zgaradi. Bosh balandligi faqat ikki barobar kattalashadi, tana asosi tors— uch barobar, qo'llar — to'rt barobar, oyoqlar — deyarli besh barobar, bo'yin — etti barobar, ko'krak qafasi aylanasi — uch barobar kattalashadi. Tananing pastki qismining o'sish darajasi tepa qismga nisbatan ancha yuqori bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, ayol va erkak kishilar tana nisbatlarida ham farqlar mavjud. Ayol kishi qomati erkaklarnikidan past bo'y, oyoq va qo'llarning nisbatan qisqaligi, kichikroq yelka va keng tos qismi, kaft va tovonning kichikligi, boshga

nisbatan yuzning kichikligi, jag' va bosh chanog'ining kamroq rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

Odatda erkaklarning yelkasi tosdan ancha keng. Ayol tanasi ingichka va nisbatan uzun bo'yin va biroz tushgan yelkalari bilan xarakterlanadi. Ayollar ko'krak qafasining yuqori qismidan ko'krak so'rg'ichlarigacha bo'lgan oraliq erkaklarnikiga nisbatan qisqa. Ayollarning oyoqlari qisqaroq bo'lganligi sababli ularning kindigi tananing o'rtasi bo'lib, u erkaklarnikiga nisbatan balandroqda joylashgan. Tizza chiziqlari ayollarda erkaklarnikidan pastroqda joylashadi. Ayollarning beli ko'proq oldinga chiqqan, dumba muskullari ichkariga tortilgan, ko'krak qafasi qisqaroq. Erkaklarnikiga nisbatan, qorin - uzunroq. Inson tanasining mukammalligi va o'ziga xos xususiyati yana shu bilan izohlanadiki, agar yangi tug'ilgan chaqaloqning kindigi tanani teng ikkiga bo'lsa, katta odamlarning erkak va ayollarning bel qismi tanani «oltin kesishuv» tamoyiliga ko'ra teng bo'lmagan ikki qismga ajratadi.

Yaxshi portret ishlashni o'rganishda kerakli bo'lgan bilimlardan biri bu boshning plastik anatomiyasidir. Bosh va tana nisbatlari estetik idealni oldindan ko'rsatib beradi; rassom nisbatlar yordamida turli tuzilishdagi inson tanasini chizish imkoniga ega bo'ladi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, qadimgi an'analar, Uyg'onish davrining tasviriy hujjatlari bilan bog'liq ko'plab zamonaviy qonunlar bosh balandligini o'lchov vositasi sifatida qo'llashni ko'zda tutadi. Bosh balandligining tana balandligi bilan munosabati birinchi marotaba Vitruviy ijodida $\frac{1}{8}$ deb ko'rsatilgan. Ushbu nisbat keyinchalik Ch.Chennini va Leonardo da Vinchi ijodida ham o'z aksini topdi. Boshning nisbiy o'lchamlardagi chizmasi Leonardo da Vinchi tomonidan haqiqatga yaqinroq qilib ishlangan va uning butun tana bilan munosabati o'zida tabiiylikni mujassamlashtirgan Leonardo nisbiy o'lchovlarini solishtirgan. Boshning ko'z kosasining yuqori qismidan o'tuvchi chiziq orqali ikki qismga bo'linishi bosh nisbatlarining yoshga ko'ra o'zgarishini kuzatish uchun qulay vosita. Shadov yuzning uch qismi tengligini ilgari suruvchi eski tizimdan voz kechib, peshonaga bosh suyagining bir bo'lagi deb qaraydi va

uning balandligini soch qoplangan yuza har xil bo'lishini inobatga olib turlicha bo'ladi deydi.

Yosh o'zgarishi bilan ko'zning yuz kengligiga nisbatan o'zgarishi juda kam bo'ladi va u insonda butun umri davomida deyarli bir xil bo'ladi. Bu yerda shuni ko'rishimiz mumkinki, rivojlanish davrida yuzning ko'z joylashgan yuqori qismi pastki qismga nisbatan kengroq boladi.

Uch yoshli bolaning boshi kvadratning ichida joylashadi. Katta odam boshining profilini kvadrat bilan solishtirsak, yuzning miyaga nisbatan tez o'sganini ko'rishimiz mumkin.

Odam boshini chizish — tasviriy san'at sirlarini tushunib etish va o'rganish jarayonidagi eng muhim bosqichlardan biri. Shuningdek, soch turmagini chiza olish kerak. Chunki turmak va bosh kiyim kostyumni to'ldiradi va ular birgalikda yaxlit kompozitsion butunlikni tashkil etadi.

Tirik modelning boshini chizish Bosh suyagi, bosh ekorshesi va gipsdan ishlangan bosh maketi rasmini ishlash bilan birgalikda amalga oshirilishi mumkin.

Bosh suyagini turli rakurslarda chizishdan maqsad — odam boshining asosi sifatida uning tuzilishini o'rganishdir. Bosh suyagi kuchli perspektiv o'zgarishlarga uchramasligi uchun uni rassomlar oldiga ularning ko'z nuri darajasida joylashtirish kerak. Model yuqori-yon tarafdin yoritilishi lozim.

Ishga kirishishdan avval, talabalar dastlab tasvirning umumiy shaklini qog'ozga tushiradilar. Topilgan o'rta va yon chiziqlar asosida Bosh suyagining umumiy massasi belgilab olinadi. Bunda modelning shartli chegarasi burun ko'prigi va ko'z kosasidan o'tuvchi hamda quloq darchalarigacha davom etuvchi yuz va miya qismlarining nisbatlari to'g'ri aniqlanishi lozim. Kalla suyaklarining umumiy shakli va qog'ozdagi joylashuvi aniqlanganidan so'ng, tasvirni ishlashga kirishiladi. Asosiy detallar joylashuvi asosida umumiy shakl aniqlashtiriladi. Rassomga yaqin joylashgan ko'z kosasining tashqi chekkasidan, yoysimon suyak burchagidan o'tuvchi va pastki jag' burchagi bilan birlashuvchi shakl qirrasini bo'yicha yuz va yon taraflar munosabati aniqlanadi.

Rassom e'tibori asosan peshona shaklining umumiy tuzilishiga, qoshning yuqori qismidagi yoy va peshona bo'rtmalariga qaratilishi lozim, chunki keyingi ishlanadigan gipsli va tirik model tasvirini ishlaganda, rassomga peshona ko'rinishini tasvirlash bir qator qiyinchiliklar uyg'otishi mumkin.

Pastki jag' suyagidan boshqa barcha suyaklar bir-birlari bilan birlashgan. Bunda faqat ikki xil harakat yuzaga kelishi mumkin: bosh va umurtqa oralig'idagi bo'g'im harakati ta'sirida va pastki jag' ishlaganida. Boshning umumiy harakati boshni yuqoriga ko'tarish va pastga tushirish boshni silkitish, yon tomonlarga egish, aylantirish. Bosh harakati odatda ko'p hollarda bo'yin harakatiga mos keladi.

Boshni chizish avvalida o'rta yuzaning ikki tarafida yotuvchi juft simmetrik shakllar tuziladi. O'rta chiziq — simmetrik shaklni aniqlashtradii teng ikki qismga ajratuvchi shartli yuza. Bosh suyagining yuzasi engak do'mbog'i, oldingi burun ko'prigi, burunning o'rta qismi, burunning yuqori qismi, peshona markazi va esa suyagi do'ngligidan o'tib boshning o'rta chizig'ini hosil qiladi.

Rasm tekisligida o'rta chiziq oddiy ko'rinishda egri shakl hosil qiladi va bosh burilish darajasiga ko'ra u bo'rtib chiqqan holatda, old tomondan qaralganda to'g'ri chiziq bo'lib ko'rinadi. Bosh egilganida unga mos ravishda o'rta chiziq ham egiladi.

Rassom tomonidan tanlangan ko'rish nuqtasiga mos ravishda qoshdan o'ngda, chapda, yuqorida, pastda peshona do'ngligi, qosh yuqorisidagi yoylar, yonoq suyaklari, yonoq yoylari, yuqori jag', pastki jag'ning o'ng va chap tomonlari, quloq va boshqalar belgilanadi. Agar bosh egilgan bo'lsa, rakursga mos ravishda peshona, yonoq, pastki jag', quloqlarning suyak bo'rtmalari belgilanadi. Bosh suyagini yoki boshni orqa tomondan chizishda o'rta chiziq va boshning boshqa chizig'ini, keyin esa quloq, yonoq yoyi, peshona va orbita chegarasi, yonoq va pastki jag' asosini e'tibor bilan belgilash kerak. Bosh suyagi qismlari joylashuvining hajmli ko'rinishini to'liq tasavvur etish uchun vaqti-vaqti bilan, o'rindan turib, modelni turli tomonlardan tomosha qilish va avvalgi holatda rasm chizishni davom ettirish kerak. Yuz qismlarini aniqlashtirish — burun, og'iz,

ko'zni chizish — boshning shakli chizib bo'lingandan so'ng amalga oshiriladi. Qalamtasvirda portret ishlashda, umuman portret janrida asarlar yaratishda, tasvirlashning asosiy qonun qoidalariga rioya qilish bilan birgalikda palastik anatomiyaga oid bilimlarni ham yaxshi egallagan bo'lishimiz kerak.

Mashhur rassomlarning hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishsak, ular tasviriy san'at sirlarini o'rganishda va bo'lajak asarlarini yaratishda palastik anatomiyaga oid bilimlarni ham yaxshi egallagan undan unumli foydalanganliklarini guvohi bo'lamiz. Shunday rassomlardan Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Rembrandt, Karl Bryullov; O'zbekistonlik rassomlardan O'ral Tansiqbayev Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiyev, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev va boshqa rassomlarni aytish mumkin.

1-bob bo'yicha xulosa

Qalamtasvirda talabalarga portret chizishning umumiy tomonlari haqida ma'lumotlar berib borish hamda bu jarayonda amaliy mashqlar bajarish talabalarining dunyo qarashini har tamonlama kengayishiga yordam beradi. Yoshlarni mehnatga, aql-idrokka, tafakkur qilishga, ijod qilishga, go'zallikka intilishga o'rgatadi. Bugungi kunda tasviriy san'at odamlar va jamiyat uchun yuksak aql-idrok, chuqur bilim va tafakkur, go'zal turmush va e'tiqod yaratishini hamma yaxshi biladi. Shuningdek, tasviriy san'at yoshlarga faqat ilm-tafakkur, go'zal estetik ideallar beribgina qolmay, yoshlarning eng muhim jihatlarini, ya'ni kuzatish, ko'rish, idrok qilish va tafakkur tasavvurlarini rivojlantiradi.

Tasviriy san'at asarlari har doim kishilar ruhiyatiga tasir etib kelgan. Jozibador ishlangan rasmlar, haykallar bizni qoyil qoldiradi. Ularni kim va qachon ishlaganligiga beixtiyor nazar tashlaysiz. Eng muhimi ular qanday bajarilgan? Tasviriy san'at sirlari nimalardan iborat? Ana shunday savollar bilan qiziquvchi yoshlar, ota-onalar oz emas. Lekin rasm chizishni barcha xoxlovchilar ham o'rganib olishlari ham mumkin. Buning uchun qiziqish va ishtiyoq, qunt va toqat bo'lsa bas, bunday qiziqarli va mashg'ulotni rasm chizishga ishtiyoq bilan to'lib toshgan bolalikdan boshlansa, nur ustiga al'o nur bo'ladi.

Kasb-hunar kollejlarining tasviriy san'at darslarida qalamtasvirda portret chizishning umumiy tomonlarini o'rgatishning ahamiyati kattadir. Shu sababli malakaviy bitiruv ishining yozma qismini 1-bobida rasm ishlashda tasvirlashning asosiy qonun-qoidalaridan foydalanish, bosh shaklini chizish jarayonida qalamtasvirning ahamiyati, portret ishlashni o'rganishda plastik anatomiyaning ahamiyatini yoritib berishga harakat qilindi.

II bob Qalamtasvida avtoportret ishlash va o'qitish metodikasi

2.1. Qalamtasvirda avtoportretni bosqichlar asosida chizish usullari.

Portret – tasviriy san’at janrlari ichida eng qadimiylaridan bo’lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san’at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruxiyatini asarda talqin etadi.

Avtoportret - portret janrining ko’rinishlaridan biri bo’lib, musavvir o’zining tashqi qiyofasini o’zi tasvirlaydi.

Portret - inson obrazini tasviriy san’atda yaratishda eng murakkab janr hisoblanadi. Ma’lumki har bir davrning usta rassomlari bo’lgan. Ular portret asarlarida zamondoshlarining go’zal qiyofasii obrazlarini yaratib, keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan. Uyg’onish davrining buyuk nomoyondasi Lenardo da Vinchining «Avtoportret», «Djakonda» asari, shular jumlasidandir.

Tirik bosh doim harakatda bo’ladi: naturachi qimirlab ketsa, soya va yarim soyalar xarakteri o’zgaradi. Tirik bosh rasmini chizuvchi endi bularni o’zi amalga oshirishi, asosiy narsani ikkinchi darajalisidan ajrata bilishi kerak bo’ladi.

Talabalar portret chizishni o’rganishlarida gips boshlardan foydalanishadi. Gips boshning qulaylik tamonlari shundaki u har doim qimirlamasdan turadi. Bu esa portret ishlashni o’rganuvchilar uchun ancha qulaydir. Lekin talabalar tirik boshdan ham rasm chizishni o’rganishlari lozim bo’ladi. Tirik boshni doim qimirlab turishi esa ancha qiyinchiliklar keltrib chiqaradi. Tirik bosh shaklini tasvirlayotib unga tus berishda ham murakkablik tug’iladi. Tirik naturadan chizishda shaklga tus berish yana shu bilan murakkablashadiki, naturada turgan kishining yuzi, sochlari, ko’zlari, yonoq va lablari har xil tusda bo’ladi.

Rassom bosh shakli qurilishi qonunyatlarini bilmasa, massa, naturadan passiv nusxa ko’chiruvchi bo’lib qoladi, natura uning butun e’tiborini jalb qiladi, u naturadan nazarini olib qochishga qo’rqadi va bu natura qurulishining qonunyatlarini idrok etolmaydi, binobarin, ulardan o’z ijodiy ishida foydalana olmaydi ham. Haqiqiy ijod erkinligiga erishish uchun rassom ilmiy bilim bilan qurollanishi zarur. U bu bilan yordamida boshning

har bir chuqurchasi va bo'tib chiqqan joylari nimaga asoslanganligi bilishi lozim.

Rassom avtoportret chizishda quyidagi uchta vazifani bir yo'la hal qilishi kerak:

1. hajmli bosh shaklining ishonchli chiqishiga erishish;
2. rasmda kalla suyagi va mushaklar mutanosibligiga erishish;
3. inson avtoportretining individual xususiyatlarini ochish.

Bu vazifalarini muvafaqiyatli hal qilish uchun rassom shakl qurilishining individual xususiyatlarini, u yoki bu detalning joylashishini chuqur sezishi, oldindan esa bu qonuniyatlarni yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun avtoportretni chizishga kirishishdan oldin kalla suyagi va uning mushak bilan qoplanishi xususiyatlarini asoslovchi anotomiya va boshqa fanlar qonuniyatlarini o'rganish kerak. Odam boshining anatomik qurilishini tahlil qilish bilan birga, tasvirda inson boshi va mushaklarning joylanish qonuniyatlariga rioya qilish talab etiladi. Rasm chizish usuli induvidal tarzda bo'lishi mumkin, lekin mushaklar, suyaklar, paylarning joylashish qonuniyatlarini to'g'ri, bir xilda ochish kerak. Bular tasviriy san'atning ilmiy qoidalaridir. Tus berish, nisbatlar, shaklning konstruktiv asoslari haqida ham shularni aytish mumkin.

Tabiiyki, talaba dastavval, odam boshi shakli qurilishi sxemasini tushunishi va eslab qolishi, ularni amaliyotda qo'llashi kerak. Taklif qilinadigan sxemalar va shaklni tahlil qilish prinsiplari bo'yicha bosh tasvirini chizish, hatto, o'quv paytida ham ijodiy jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham u keyinchalik yosh rassomga o'z shaxsiy ish usullarini topish imkonini beradi. Biroq har qanday holda ham, dastlab, bosh shaklining konstruktiv-anatomik tuzilishini, ya'ni odam boshi anatomiasini o'rganish kerak. Talaba plastik anatomiyani o'rganar ekan, shaklning tashqi tomonini kuzatish bilan cheklanib qolmaydi. U shuningdek fikr yuritayotgan anatom olim kabi shakl ichiga kirib borishi, inson tanasi qurilishining qonuniyatlarini tushunib etishga harakat qilishi lozim. U o'z kuzatishlaridan xulosa va

umumlashmalar chiqarib, ba'zi mushak shakllarining qoidalari va me'yorlarini bilib boradi. Insonni bunday chuqur ilmiy o'rganishda Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Losenko, Shabuyev va boshqalarning chizgan rasmlarini misol tariqasida ko'satish mumkin. Leonardo da Vinchi rasmlarida biz nafaqat tashqi mushaklarini, balki chuqur paylar, kemirchak tog'aylarni ham ko'ramiz. Kalla suyaklarini tahlil qilishda chakka suyagi, jag' suyagi shakllarining harakatiga, jag' suyak usimtasiga, pastki jag' va ensa gardanlarga alohida e'tibor berish kerak. Shuningdek, katta ensa, uning chuqurchasi va ellipsoid shaklidagi ikkita bo'rtib chiqqan qismiga ular yordamida gardan suyagi atlant, bo'yin suyagining yuqori umurtqasi bilan tutashadi e'tibor qaratish kerak. Bu suyaklarning hammasi atrofligicha o'rganilishi kerak. Rassom uchun eng asosiysi - u bularni qalam va qog'oz tutgan holda o'rganadi.

Rassom avtopartret ishlashda yaxshi natijaga erishish uchun suyaklar shaklining xarakterini qurilish xususyatlariga va umuman, bosh shaklining xarakteristikasiga yaxshi bilishiga bog'liq. Shuning uchun natura kalla suyagining umumiy shaklini eslab qolishga harakat qilish kerak. Chunki ular tirik boshni hotiradan tasvirlayotganimizda ham zarur bo'ladi. Jag' suyagi va jag' suyagi o'simtasi shaklining xarakterini eslab qolar ekanmiz, tirik bosh rasmini chizishda yonoqlar shaklining to'g'ri tasvirlanishi quloq suprasini tasvirlashda yordam berishini nazardan qochirmaslik kerak. Jag' suyagi o'simtasining kattaligi taxminan to'rt enli bo'ladi, jag' suyagi o'simtasining uchi doimo quloq suprasi va bukri o'rtasiga joylashgan bo'ladi. Buni har kim o'z aksiga qarab tekshirib ko'rishi mumkin. Jag' suyagi o'simtasini ushlab ko'rib, quloq suprasi o'rtasiga kirib borishini, o'simtani paypaslayotgan barmoq esa bukri taqalayotganini sezish mumkin. Bu narsani bilmagan talaba, odatda, quloqni yo yonoqqa, yo ensaga joylashtirib qo'yadi.

Kalla suyagi umumiy qonuniyatlarini o'rganishda uning yoshga ko'ra o'zgarishini ham hisobga olish zarur. Kalla suyagining yoshga ko'ra o'garishlarini beshta davrga ajratish mumkin: birinchi - tug'ilishdan yetti

yoshgacha; ikkinchisi - yetti yoshdan jinsiy yetuklik yoshigacha; uchunchisi - o'n olti yoshdan 30 yoshgacha; to'rtinchisi 30 yoshdan 60 yoshgacha va beshinchisi - 60 yoshdan katta yoshgacha. Go'daklarda kalla qutisining miya qismi old qismiga qaraganda ancha katta bo'ladi. Ikkinchi davrda suyaklarning o'sish jarayoni sekinlashadi va old gardan suyaklarining o'lchamlari o'rtasidagi farq uncha bo'lmaydi. Uchinchi davrda peshona suyagi tez rivojlanadi, kalla suyagining miya qismi kengayadi va yuqoriga qarab o'sadi, old qismi uzunlashadi, yanoq suyagi yoylari keskin yozila boshlaydi. Kalla suyagi uzil kesil ya'ni katta kishilarga xos ravishda shakllanadi.

To'rtinchi davrda suyaklar o'sishdan to'xtaydi va hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi. Beshinchi davrda old qismi o'zgara boshlaydi. Buning natijasida pastki jag' ko'tariladi, daxan keskin old tomonga turtib chiqadi, yuz qisqaradi; kalla suyagining choklari qotadi.

Avtoportret chizishda rassom boshning yelka kengligi bilan tutashtirish qonuniyatlarini ham bilishi kerak. Kalla suyagi qutisi yelka kengligi bilan yetita bo'yin umirtqalari yordamida tutashadi. Bu umirtqalar birining ustiga biri joylashgan bo'ladi, lekin ular orasida bukiluvchan tog'aylar bo'ladi. Tog'aylar ularni birlashtirib turadi va harakatlanishiga imkon tug'diradi. Birinchi umurtqa yuqorida bo'lib, unda kalla o'rnashadi. Bu umurtqa "atlant" deb nomlanadi osmonu falakni ko'tarib turgan afsonaviy devqomat Atlant nomidan olingan. Atlant bosh orqaga va oldinga egilgandagina harakatga keladi.

Bosh mushaklari, asosan, kalla suyagining old qismida joylashadi, ular kalla suyaglarini qoplab turadi va yuz shakli, umuman butun bash harakatini belgilaydi. Peshona mushagining pastki uchlari osti terisiga yopishgan bo'lib, u qisqarishda qoshlarni ko'taradi. Peshona mushaklarining tolalari qanchalik ko'p qisqarsa, qoshlar shunchalik ko'tariladi, shu bilan birga peshonada chuqurroq relifli ajinlar paydo bo'ladi. Qoshlar ko'tarilganda qovoq ham ko'tatiladi va ko'z kattaroq ochiladi.

Har bir mushakning plastik xususiyatlarini eslab qolish muhim. Shuning uchun ham rassomlar butun anatomiyani emas, balki aynan plastik anatomiyani

o'rganadilar. Rassom uchun nafaqat mushaklarning umumiy ko'rinishi balki ularning suyaklarga boshlang'ich va oxirgi yopishishlarini, eng asosiysi esa – mushak tolalarining yo'nalishini ham bilishi juda muhim. Chunki shaklga tus berishda rassom qalami ana shu mushaklar yo'nalishi bo'yicha harakatlanishi lozim, bu esa rassomga ishonchli realistik obraz yaratishda yordam beradi.

Tirik odam boshini tasvirlashda yoki avtoportretni tasvirlashda boshqichlar asosida ishlashni mukammal o'rganib olish muhimdir .

- 1) tasvirni kompozitsion joylashishi bosh shaklning umumiy xarakterini, shuningdek, qismlar va umumiy shaklning proporsional nisbatlarini belgilab olish;
- 2) bosh shakli anatomik tuzilishining o'ziga hos xususiyatlarini ochib bergan holda chiziqli - konstruktiv tasvirlash;
- 3) Tus munosabatlarini hal etish orqali shaklni detalli chizib chiqish;
- 4) Material xususiyatlarini ochib berish va ishga yakun yasash – umumiyashtirish.

Birinchi bosqich - qog'oz yuzasida tasvirni kompozitsiyaviy joylashtirish, bosh shaklining umumiy xarakteri va proporsiyalarini belgilash.

Talabalar, odatda, naturaning ifodali turishining o'zidanonoq ilxomlanib ketadilar va darhol kompozitsion vazifa hal etiladi. Endi uni faqat mexanik tarzda, ko'zga qanday ko'rinayotgan bo'lsa shundayligicha qog'ozga tushirish qoldi deb hisoblaydilar. Lekin natura obrazli juda yoqin va ifodali bo'lishi bilan birga tasvirda uning ko'rinishi yetarli darajada ishonchli chiqmay qolish mumkin. Shuning uchun ham rassom uchun asosiy massa, bosh, yuz tuzilishi, soch va ko'zlar go'zalligini ko'rish va his qila bilish juda muhimdir. Kompozitsion chizgilar chizishda talaba, avvalo, eng ifodali ko'rinishni tanlab olish kerak. Qulay nuqta tanlab olingandan keyin rasim chizishga kirishiladi.

Avvalo, avtoportret ishlashda qalamni qog'oz ustida yengilgina, bosmasdan xarakatlantirib, modelning kompozitsion tuzilishini hal qila borib, boshning umumiy shaklini belgilab olamiz. Kompozitsion yechim ustida ishlayotib, bir yo'la bosh sxematek tarzda belgilab olinadi. Bu perspektiv qonunlarni to'g'ri hal qilishga

yordam beradi. Tasvir qog'oz ustida joylashtirish tirib bo'lingandan so'ng bosh shakli xarakterini, boshning burilishini holatini, uning bo'yin va yelka kengligi bilan birikishini aniqlab olamiz. Tirik bosh rasmini chizishda profil chizig'ini dadillik bilan uchta teng qismga ajratiladi. Bu bizga nafaqat tasvirni to'g'ri qurish, balki portret o'xshashligiga erishishga ham yordam beradi. Masalan, profil chizig'ini uch teng qismga ajratib, sochi to'kilayotgan kishida sochlar qoplamasi qoplama chizig'idan ancha balandda joylashishini, quyuc osilgan qoshlar qosh usti yoylaridan pastroqda bo'lishini belgilaymiz.

Ushbu bosqichda eng asosiysi – boshning umumiy ko'rinishi va uning xarakterini to'g'ri belgilab olishdir. Detallar burun, ko'zlar, og'iz faqat belgilab qo'yiladi: ularga tus berishga shoshish kerak emas, bularni keyinroq, hamma narsalarni o'z joyida belgilab bo'lgandan keyin qilsa ham bo'laveradi. Shuning uchun talaba e'tiborini dastlab bosh shaklining umumiy xarakterini belgilab olishga, so'ng detallarning joylashish o'rinlarini aniqlab olishga qaratish lozim. Tasvirga o'zgartirishlar kiritish mumkin bo'lishi uchun qog'oz ustida qalamni yengilgina yurguzib chizamiz va chiziqli - konstruktiv rasmga o'tamiz.

Ikkinchi bosqich perspektiva va anatomik tuzilishni hisobga olgan holda bosh shaklini shiziqli-konstruktiv tasvirlash.

Umuman, bosh va uning bo'laklarini chiziqli-konstruktiv tasvirlashga o'tayotganda hajm qanday tashkil topishini ko'rsatishga harakat qilinadi.

Xar bir yuza har xil yoritilgan. Biz shu yuzalarni yengil chiziqlar bilan ifodalab, butun bosh shakli, uning bo'laklarini ham to'g'ri va ishonchli tasvirlashimiz mumkin. Bosh shaklini chizishda shaklning konstruktiv asosini ochib berib, bir yo'la kalla suyaklari bilan asoslangan shakl xarakteriga ham aniqlik kiritish lozim.

Ko'z, quloq, butun, lablar shakliga aniqlik kiritib borib, doimo ular o'rtasidagi bog'liqlikni kuzatib turishi lozim. Har bir bo'lak bir-biri bilan uyg'unlashgan chog'ida maqsadga erishiladi. Bunday o'zaro bog'liqlik, qosh usti chiziqlari, ko'z kosasi, yuqori va pastki qovoqlarni birlashtiruvchi yordamchi chiziqlar bilan ko'rsatiladi.

Oxshashliklarni ochib berish uchun rassom ko'zlarning joylashish xarakterini diqqat bilan kuzatishi zarur. Quloq suprasining joylashishini to'g'ri chizish uchun quloq suprasini ustki jag' suyagi shoxchasiga parallel holatda tasvirlash kerak.

Shakl xarakteri va quloq suprasining joylashuviga alohida etibor beramiz. Har bir kishining quloqlari o'ziga hos tuzilishga ega. Quloq shakli qurilishining qonuniyatlarini bilgan rassom har bir detal xususiyatini osongina ilg'ab oladi. Odam qulog'i beshta asosiy qisimdan iborat. Quloq suprasini tasvirlashda qiyofachini quloq suprasini o'ziga xos tomonlarini kuzatish mumkin.

Yonoq va chaynash mushaklari yaxshi rivojlangan, yonoqlari esa kuchli bo'rtgan. Ularni tasvirlash orqali obraz xarakteristikasini kuchaytiramiz. Keng peshona mushaklari terining ko'dalang burushlari bilan chuqurchalar hosil qilgan. Ularni tasvirlashda ehtiyot bo'lish kerak, chunki bo'rtmalar yonoqlardagi teri burshuqlari bilan "tortishib"qolishi mumkin.

Uchinchi bosqich tus berib shaklni detallashtirish. Shaklni detallashtirishdan oldin ish bosqichlarining to'g'ri hal etilganligi yana bir bor tekshirib chiqiladi. Shaklning umumiy ko'nishini yo'qotmaslik uchun tasvirga sekin-asta tus beriladi. Dastlab yengilgina tarzda asosiy soyalar belgilab chiqiladi. Bu esa bosh shaklni yaxlit ko'rish, aniqliklar kiritish imkonini yaratadi. Shundan so'ng yana umumiy shakldan kelib chiqqan holda, bo'laklariga o'tish mumkin. Alohida bo'laklarga aniqlik kirita borib, shakl tuzilishi qonuniyatlariga e'tibor beriladi.

Ko'z bir tomonga qaragan muguz qabarig'i yuqori qovoqlarni ham o'sha tomonga, ya'ni odam qayoqqa qarasa o'sha yoqqa buradi. Shuning uchun yuqori qovoqlarni chizayotganingizda uning tashqi va ichki tomonlariga e'tibor bering.

Qoshlar xilma xil: keng, tor, qalamqosh, baroqqosh, tekes, pastga qarab osilgan, chimirilgan, bir-biriga tutashib ketgan bo'lishi mumkin. Portret xarakteristikasining aniq chiqishi qoshlarning to'g'ri yoritilishiga bog'liq.

Avtoportretni tasvirlash jarayonida shaklni detalli ishlash, detallarni umumlashtira olish rasmning badiiy ifodali chiqishiga yordam beradi. Detalli ishlash rasmning ifodali chiqishini ta'minlaydi. Ishning ushbu boshqichida bosh shakli va uning detallariga aniqlik kirita borib, bir yo'la tus berishga ham asos

tayyorlash kerak.

Akademik rasmda nafaqat shaklning to'g'ri tasvirlanganligi, balki uning ifodali chiqqanligi ham qadrlanadi. Rasmdagi ifodalilik tus berish vazifasi qanchalik to'g'ri hal etilganligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

“Tus” deyilganda bir yorug'lik manbaidan predmet yuzasiga tushgan yorug'likning miqdori va sifatini hamda predmet tusini tushunamiz. Predmetning alohida yuzalari yoritilishining o'zgarishi ularning yorug'lik manbaiga nisbatan kenglikdagi holatiga bog'liq. Tus yorug'lik xarakteri (tabiiy – quyosh, oy nuri; sun'iy elektr lampochkasi, sham) va yorug'lik tushayotgan predmet tusi bilan o'lchanadi.

To'rtinchi bosqich materiallikni hal etish va ishga yakun yasash – umumlashtirish. Ishning bu bosqishi eng qiyin va davomlidir. Bunda talaba vazifani ma'lum tugallikka yetkazishi, o'quv materialini qanday o'zlashtirib olganini bilan bir qatorda o'z ijodiy imkoniyatlarini ham namoyon etishi kerak. Talaba o'z portretiga tus berishda bir yo'la uning materiallik tomonini ham ochib tuslay olsa, rasmning ifodaligi yanada ortadi. Masalan, agar talaba tasvirda ko'zining shakl va xarakterini to'g'ri tasvirlasa- yu, ko'zlarga joziba bermasa, uning chizgan rasmi yetarli darajada ifodali chiqmaydi; u ko'zlarni tasvirlar ekan, kiprik va teri, shuningdek, namlangan ko'zlar jozibasi kabi omillarni to'g'ri ochib bersa, portretning ifodaliligi yanada ortadi. Ko'zlar jozibasi deganda shu narsani tushunish kerakki, ko'z soqqasi doimo ko'z yoshlari bilan namlangan bo'ladi. Agar rassom ularni tasvirda ochib bera olmasa, u odam ko'zining ishonchli va ifodali chiqishiga erisha olmaydi.

Qilingan ishlarga yakin yasalayotganda reflekslar yorug'lik bilan bir xil tusda bo'lib qolmasligi, qattiq qoraytirib soyalar hosil qilmasligi uzoq plandagi yorig'lik va soya kontrastlari oldinga chiqib qolmasligini tekshirib olish kerak. Bunday xotolarni tezroq ilg'ab olish uchun tasvirga ko'proq uzoqroqdan turib qarash kerak

Avtoportret ushlarining metodik ketma-ketligiga yakun yasayotganda shu narsa esdan chiqarilmasligi kerakki, ishning har bir bosqichiga yetarli darajada vaqt ajratilishi kerak.

Tasvirlashning metodik ketma-ketligini o'zlashtirib olish boshlovchi rassomga uzluksiz, har bir bosqich aloxida qanday hal etilishini bilgan holda ishonch bilan ishlash imkoniyatini beradi. Rasm ishlashda amaliy tarjibasi bo'lgan yosh rassom yakuniy natijani oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga ega bo'la boshlaydi. Lekin oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga ba'zilar o'ylaganidek, har kim o'z holicha emas, balki pedagog yordamida, butun tasvirlash jarayonini bosqichma-bosqich o'zlashtirish natijasidagina ega bo'lishi mumkin.

Tirik bosh rasmini chizish mashqlaridan keyin bir qator boshlarni yelka kengligi bilan birga chizib ko'rish kerak. Bu vazifalar boshning yelka kengligi bilan bog'lanish qonuniyatlarini o'zlashtirib olishga yordam beradi. Tirik odam rasmini chizish rassom uchun yaxshi maktab hisoblanadi. Tirik inson yuz harakatidagi shakl boyligi va ifodaliligi yosh rassomga bu odamga xos bo'lgan eng harakterli xususiyatlarini ilg'ab olish va badiiy obraz yaratish uchun dadil qadam tashlash imkonini beradi. O'quv vazifalari portret va avtoportret san'ati egallashga ko'maklashadi. Odam boshini tasvirlash prinsiplarini yaxshi o'zlashtirib olgandan so'ng yanada murakkabroq vazifaga – ijodiy portret yaratishga o'tish mumkin.

Evropa muzeylarida Golbeyn, Rembrant, Titsian, Rafael, Baticelli kabi zabardast tasviriy san'at ustalarining yaratgan noyob asarlari saqlanmoqda. Hamma ulug'lar kabi Rembrant ham ijodida mehnatkash, serunum edi. Faqat Avtoportretlarini o'zi 60 tadan ortiq edi. Odam yuz qiyofasini tuzilishi, tasvir vositasi soya yorug'larni joylashishi psixologik holatini chuqur o'rganishni asosiy vazifa deb bilardi.

Rembrantni avtoportretlari ichida eng shoh asariga aylanganlaridan biri, boshiga oq boylagich boylagan avtoportretdir (Parijdagi Luvr muzeyida saqlanmoqda). Quvonchli kunlar uchun ko'p zahmat chekkan shaxs, tasvirda aks etgan. Rembrant tasviriy san'atda eng buyuk psixologik portretchi rassomlardan biri hisoblanadi. U insonni nafaqat xarakteri balki ichki dunyosini, kechirmalarini ko'z yoshlarini, chuqur psixologik holatini mahorat bilan tasvirlagan san'at ustalaridan hisoblanadi. Golllandiyalik rassom Rembrant kabi ko'pgina Evropa

rassomlari ham ajoyib portretlarni yaratib nom qozondi. Bu portretlar mahoratli ishlanganligi va maftunkorligi bilan insonni o'ziga rom qilib oladi. XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan buyuk rus rassomlari O. Kiprenskiy, V. Tropinin, A. Venetsianovlar rus portret sana'tining asoschilari bo'ldilar. Ular XVIII asr portretchilik ananasini davom ettirib, insonni tasvirlashga yana ham zo'r e'tibor bilan qaradilar, inson psixologiyasiga katta ahamiyat berdilar va rassomchilik maxoratini oshirdilar.

Mustaqil uy vazifalarini bajarganimizda, portretni chizishni o'zlashtirishda avtoportret ishlashning ahamiyati katta ekanligiga amin bo'ldik. Shuningdek taniqli rassomlarni hayoti va ijodini o'rganganimizda, ayniqsa portret janrida ijod qilgan rassomlar portret san'atini egalashlarida o'z qiyofalarini yani avtoportretlarini ishlaganliklarini bilamiz. Shunday ijodkorlardan ayrimlarini eslab o'tish o'rinlidir. Chet el rassomlaridan Loonar da Vinchi, Rembrand, Karl Buryulov, E. Repin, O'zbekistonlik rassomlardan Bahrom Hamdamiy, O'ral Tansiqboyev, Abdulhaq Abdullaev, Malik Nabiyev, Chingiz Ahmarov, Bahodir Jalolov, Nodira Oripova va boshqa ijodkorlarni takidlab o'tish lozim.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki tasvirlashda kichik yutuqlarni qo'lga kiritish uchun ham ko'plab mehnat qilish zarur ekan.

2.2. Qalamtasvirda avtoportret ishlashning shakl va usullari

«Uslub» deganda tasviriy san'atda rasmi chiziladigan obyektни, naturani yoki tahlil etiladigan san'at asarini talabalarga tushuntirish yoki uning nazariy va amaliy asoslarini tahlil etib berishni yoki o'rganishning yo'l-yo'riqlari, uslublari tushuniladi.

«Pedagogika» fanidan shu narsa ma'lumki, «metodika»— ifoda etish so'zidan olingan bo'lib, o'rgatiladigan o'quv materialini talabalarga o'rgatish, o'qitish va o'zlashtirishning nazariy va amaliy asosi — faoliyati yoki usulidir.

Xozirgi kunimizda mantiqiy vazifalarni hal etish muammoli o'qitish bilan bog'lanadi. Muammoli vaziyatlar hosil qilish esa mantiqiy vazifalarni yechishga sharoit yaratadi. Mantiqiy fikrlash predmed va hodisalardagi eng muhim tomonlarni ajrata olish, ko'p dalillar ichidan tipiklarini ko'rsata olish, shakllangan tushunchalardan to'g'ri foydalanish, qalamtasvir, perspektiva, rangshunoslik, kompozitsiyaning asosiy qonun va qoidalariga rioya qilish imkonini beradi.

Talabalar ufq chizig'i, chiziqlar va havo perspektivasi, kesishish nuqtasi, buyumlar shaklining perspektiv qisqarishi haqida to'liq ilmiy tushunchalarga ega bo'lishlari kerak. Qalamtasvirda ishlangan rasmlarda esa chiziqli va havo perspektivasi, noturalar shaklining perspektiv qisqarishi kuzatiladi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarining samaradorligini ko'p jihatdan talabalar faolyatini nazorat qilish hamda ularning ish natijalarini baholashga bog'liq. U o'z o'rnida birinchidan, o'qituvchi faolyatini faollashtirishga, ikkinchidan talabalar tomonidan DTS materillarini puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek u talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularning faolyatlaridagi yutuq, kamchilik va nuqsonlarni aniqlashga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Oqibatda talabalarning ishlari faollashadi. Bu o'rinda o'qituvchi o'qitish metodikasidan samarali foydalanishi ahamiyati katta.

Mashg'ulotning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish esa o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ham bog'liq. Shu bilan birga qisqa va oddiy yo'llar bilan oddiydan murakabga borish prinsipida ma'lum ketma –ketilikda erishish nazarda tutiladi. Boshqacharoq qilib aytganda uni o'qitish metodikasi to'g'ri tanlanganda talabalar kuzda tutilgan o'quv materialini puxta o'zlashtiradilar va ularda o'zlashtirish darajasi bir qadar yuqori bo'ladi.

Pedagogik nazariyada uch xil metodot bo'lib, asosan nutqiy namoyish etish va amaliy ishdan iboratdir. Bu metodlar o'z o'rnida mayda metodlarga ham bo'linadi. Masalan: nutqiy metod, hikoya qilish, tushuntirish, suhbat, kitob bilan ishlash va boshqa shu kabi metodlardan tashkil topadi.

Ko'rgazmali metod esa kuzatish, namoyish etish kabilardan amaliy ish esa mashq rasm ishlash, ijodiy ish, uyin kabi metodlarga bo'linadi.

O'qitish uslublaridan o'qitish metodi tashkil topadi. Masalan: namoyish etish metodi asosida o'qituvchi mashg'ulot o'tkazganda u ekranga san'at asarining tasvirini texnika vositasi orqali tushintradi. Bu jarayonda o'qituvchi suratdagi biror shaklini yirik qilib ko'rsatishi usul hisoblanadi. Shu o'rinda ekrandagi surat tasviri yuzasidan savol –javob o'tkazilganda ham bu yuqoridagi usulning davomi hisoblanadi.

O'qituvchi o'qitish metodlariga asoslanib ish yuritganda u qalamtasvir, rangshunoslik, perspektiva, yorug' soya, kompozitsiya qonuniyatlari va ularning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shuni hisobga olish lozimki ta'viriy san'at va amaliy san'atning u yoki bu turining nazariy asoslarini o'rgatganda tasviriy san'at, va amaliy san'atning u yoki bu faoliyat turini o'qitganda o'qituvchi bir xil metodlardan foydalanishi mumkin emas.

O'qitishda talabalarning mustaqil bilim olish jarayonini faollashtirishda va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda bilimlarning muammoli bayon etish yo'lidan keng foydalanish va qisman izlanish va ilmiy tadqiqot metodlarini qo'llash lozim.

O'qitishni faollashtirish uchun talabalarni muntazam va maqsadga muvofiq ravishda rag'batlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim –tarbiya sohasida o'qitish metodlari qotib qolmaydi. U doimo taraqqiy etadi. Bunda o'qituvchining tajribasi albatta katta rol o'ynaydi. Shunday ekan pedagogik amaliyotda shart–sharoitlarni hisobga olib shakllangan metodika asosida ham o'qituvchining shaxsiy tajribasi asosida ham foydalana berish lozim.

Tasviriy san'atda qalamtasvir darslarining muvafaqiyati ko'p jihatdan talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini shakllantrish va doimiy ravishda uni oshirib borishga bog'liq. Buning uchun o'qituvchi har doim o'z ustida muntazam ishlab borishi kerak bo'ladi. Har bir darsga imkoni boricha oz bo'lsada yangilik kiritib borilsa, yillar davomida kichik - kichik tajribalardan katta-katta yutuqlarga o'qituvchi erishishi mumkin. Har darsda o'qituvchi bir hil metod va usullarda dars o'tishi natijasida dars samaradorligi pasayib boraveradi. Shuningdek talabalarning fanga bo'lgan qiziqishi ham pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunimizda talaba yoshlarimizning zehni juda o'tkir. Dars o'tayotgan ustozning qanchalik dars o'tish mahorati yuqori ekanligi va bilim doirasi keng ekanligiga alohida etibor beradilar.

Qalamtasvirda avtoportret ishlash

ta'lim berish texnologiyasining modeli

Vaqti – 12 soat	Talabalar soni 24 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual, amaliy
Amaliy mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzuning maqsadi va vazifalari. 2. Qalamtasvirda avtoportretni tekislik yuzasiga to'g'ri joylashtirish. 3. Nisbatlarni aniqlash. 4. Xarakterli jihatlarni topish. 5. Qalamtasvirda avtoportretning xarakterli xususiyatlari e'tiborga olinib atrof-muhit, yorug'lik holatlari naturadagi tus munosabatlari tahlil etilib, davom ettiriladi va yakunlanadi .
<p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Qalamtasvirda avtoportret ishlashda inson xarakteri, ruhiyatini ifodalashga o'rganish, ishni bosqichma–bosqich ishlab borib, o'z ishining oxirgi natijasini oldindan ko'ra olish ko'nikmalarini shakllantirish.</p>	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - Mavzu bo'yicha berilgan vazifaning maqsad – vazifalari haqida tushuncha berish. - Qalamtasvirda avtoportret tasvirini tekislik yuzasiga to'g'ri joylashtirish haqida tushunchalar berish. -Nisbatlarni aniqlashni o'rgatish. -Xarakterli jihatlarni topishga erishish. - Qalamtasvirda avtoportretning xarakterli xususiyatlari e'tiborga olinib atrof-muhit, yorug'lik holatlari naturadagi tus munosabatlari tahlil etilib, davom ettiriladi va yakunlashga 	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - Berilgan vazifa va undan kutilayotgan natijalar haqida tushunchaga ega bo'ladi. - Qalamtasvirda avtoportret tasvirini tekislik yuzasiga to'g'ri joylashtirish haqida tushunchaga ega bo'ladi -Nisbatlarni aniqlashni o'rganadilar -Xarakterli jihatlarni topishga erishishadilar. - Qalamtasvirda avtoportretning xarakterli xususiyatlari e'tiborga olinib atrof-muhit, yorug'lik holatlari naturadagi tus munosabatlari tahlil etilib davom ettiriladi va yakunlashga

erishish .	erishishadilar.
Ta'lim usullari:	Amaliy mashg'ulot, bahs-munozara, "BBB" texnologiyasi va "No standart testlar" lardan foydalaniladi.
O'qitish vositalari	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, videoproektor, ko'rgazmali plakatlar, mato, qog'oz, molbert, o'chirgich qalamlar.
O'qitish shakli	Ommaviy, individual.
O'qitish shart-sharoitlari	Qalamtasvirda rasm ishlash mashg'ulotlari uchun jihozlangan auditoriya

AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Bos-qichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish (20 min.)	<p>1.1.Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.</p> <p>1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (1- ilova)</p> <p>1.3. Avtoportret ishlagan rassomlardan kimlarni bilasiz? «B B B» texnologiyasi (2- ilova)</p> <p>1.4. Rangtasvir, Kompozisiyaga oid no standart testlardan foydalanish.</p>	<p>1.1. Tinglaydi, kerakli joylarini yozib oladi.</p> <p>1.2. Tinglaydi, yozib oladi</p> <p>1.3. Tinglaydi, javob beradi 1, 2 shakllarini to'ldiradi. «B B B» texnologiyasi (2- ilova)</p> <p>1.4. Rangtasvir, Kompozisiyaga oid no standart testlardan foydalanadilar</p>

<p>2- bosqich · Asosiy (680 min.)</p>	<p>2.1. Amaliy ishlashga ruxsat beradi.</p> <p>2.2. O'quv faoliyatini muvofiqlashtiradi, maslahat beradi, yo'naltiradi.</p>	<p>2.1. Amaliy vazifani bajarishga kirishadi.</p> <p>2.2. O'quv topshirig'ini bajaradi. Amaliy ishlash bilan birga nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlab boradi.</p>
<p>3- bosqich Yaku- niy (20 min.)</p>	<p>3.1. Mashg'ulotga yakun yasaydi, o'quv faoliyati natijalarini umumlashtiradi.</p> <p>3.2. Yakuniy ko'rik tashkil qiladi. Talabalar bilan bajarilgan ish natijalarini tahlil qiladi, baholarni e'lon qiladi. Olingan bilimlarning kelgusidagi kasbiy va o'quv faoliyati uchun ahamiyatini qayd etadi.</p>	<p>3.1. Eshitadi, o'z fikrlariga aniqlik kiritadi.</p> <p>3.2. Bajarilgan ishlarni tahlil qiladi, baholashda ishtirok etadi.</p>

1-ilova

Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Qurish, joylashtirish	Shakl, hajm nisbatlarini to'g'ri topish	Soyayorug', tus munosabatlarini to'g'ri topish	Portretning ruhiy holati va xarakterini ifodalash	Umumlashtirish, yaxlitlash, yakunlash ishlari	Jami ball
3 ball	3 ball	3 ball	3 ball	3 ball	15 ball

15-13 ball – “a'lo”, 12-10 ball – “yaxshi”, 9-6 ball – “qoniqarli”

2-ilova

«B B B» texnologiyasi

Bu texnologiya bilimlarni mustahkamlash va talabalar olgan bilimlarni qay darajada ekanligini bilish maqsadida qo'llaniladi. Talabalar birinchi blokga mavzu yuzasidan bor bilimlarini yozadilar. Ikkinchi blokga mavzudan egallamoqchi bo'lgan ma'lumotlarini kiritadilar. Uchinchi blokga mavzudan olgan ma'lumotlarini kiritadilar.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
<p>Avtoportret ishlagan rassomlardan kimlarni bilasiz?</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abdulhaq Abdullaev 2. Malik Nabiev 3. Rahim Ahmedov 4. 5. ... 6. 		<p>Avtoportret ishlagan rassomlardan:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abdulhaq Abdullaev 2. Malik Nabiev 3. Rahim Ahmedov 4. Ro'zi Choriev 5. Chingiz Ahmarov 6. Leonardo da Vinchi 7. K. Buryullov 8. E. Repin 9. ...

NOSTANDART TESTLAR

1. Tasviriy san'at janrlariga oid rasmlarni aniqlang va jadvalga xar bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.

1- Natyurmort janri. 2-Manzara janri. 3-Animal janr. 4-Portret janri. 5- Morena janri. 6-Tarixiy janr.





Rasmi va ko'p javobli nostandart test javobi quyidagicha bo'ladi.

To'g'ri javoblar

2	1	4	3	6	5
---	---	---	---	---	---

2. Tasviriy san'at turlariga oid rasmlarni aniqlang va jadvalga xar bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.

1- Grafika 2-Rangtasvir 3-Haykaltaroshlik 4-Memorichilik

Rasmi va ko'p javobli nostandart test javobi quyidagicha bo'ladi.

To'g'ri javoblar

4	3	2	1
---	---	---	---

3. Berilgan asarlarning mualliflarini aniqlang va jadvalga har bir asar ostiga mos raqamlarni yozing.

1)A. Muminov 2) Ayzovskiy; 3) Tansiqboev; 4) O. Qozoqov; 5) A. Abdullayev; 6)Shishkin;

Rasmi va ko'p javobli nostandart test javobi quyidagicha bo'ladi.

To'g'ri javoblar

2	4	6	1	5	3
---	---	---	---	---	---

MA'RUZA MATNI

Qalamtasvirda avtopartret ishlash.

1. Portret janrida janri haqida umumiy ma'lumot.
2. Portret janrining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Portret kompozitsiyasida milliylik.

Portret janrida janri haqida umumiy ma'lumot

Portret – tasviriy san'at janrlari ichida eng qadimiylaridan bo'lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san'at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruxiyatini asarda talqin etadi.

Avtoportret - portret janrining ko'rinishlaridan biri bo'lib, musavvir o'zining tashqi qiyofasini o'zi tasvirlaydi.

Portret - inson obrazini tasviriy san'atda yaratishda eng murakkab janr hisoblanadi. Ma'lumki har bir davrning usta rassomlari bo'lgan. Ular portret asarlarida zamondoshlarining go'zal qiyofasii obrazlarini yaratib, keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan. Uyg'onish davrining buyuk nomoyondasi Lenardo da Vinchining «Avtoportret», «Djakonda» asari, shular jumlasidandir.

Tirik bosh doim harakatda bo'ladi: naturachi qimirlab ketsa, soya va yarim soyalar xarakteri o'zgaradi. Tirik bosh rasmini chizuvchi endi bularni o'zi amalga oshirishi, asosiy narsani ikkinchi darajalisidan ajrata bilishi kerak bo'ladi.

Talabalar portret chizishni o'rganishlarida gips boshlardan foydalanishadi. Gips boshning qulaylik tomonlari shundaki u har doim qimirlamasdan turadi. Bu esa portret ishlashni o'rganuvchilar uchun ancha qulaydir. Lekin talabalar tirik boshdan ham rasm chizishni o'rganishlari lozim bo'ladi. Tirik boshni doim qimirlab turishi esa ancha qiyinchiliklar keltrib chiqaradi. Tirik bosh shaklini tasvirlayotib unga tus berishda ham murakkablik tug'iladi. Tirik naturadan

chizishda shaklga tus berish yana shu bilan murakkablashadiki, naturada turgan kishining yuzi, sochlari, ko'zlari, yonoq va lablari har xil tilda bo'ladi. Rassom bosh shakli qurilishi qonunyatlarini bilmasa, massa, naturadan passiv nusxa ko'chiruvchi bo'lib qoladi, natura uning butun e'tiborini jalb qiladi, u naturadan nazarini olib qochishga qo'rqadi va bu natura qurulishining qonunyatlarini idrok etolmaydi, binobarin, ulardan o'z ijodiy ishida foydalana olmaydi ham. Haqiqiy ijod erkinligiga erishish uchun rassom ilmiy bilim bilan qurollanishi zarur. U bu bilan yordamida boshning har bir chuqurchasi va bo'tib chiqqan joylari nimaga asoslanganligi bilishi lozim.

Rassom avtoportret chizishda quyidagi uchta vazifani bir yo'la hal qilishi kerak:

4. hajmli bosh shaklining ishonchli chiqishiga erishish;
5. rasmda kalla suyagi va mushaklar mutanosibligiga erishish;
6. inson avtoportretining individual xususiyatlarini ochish.

Bu vazifalarini muvafaqiyatli hal qilish uchun rassom shakl qurilishining individual xususiyatlarini, u yoki bu detalning joylashishini chuqur sezishi, oldindan esa bu qonuniyatlarni yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun avtoportretni chizishga kirishishdan oldin kalla suyagi va uning mushak bilan qoplanishi xususiyatlarini asoslovchi anotomiya va boshqa fanlar qonunyatlarini o'rganish kerak. Odam boshining anatomik qurilishini tahlil qilish bilan birga, tasvirda inson boshi va mushaklarning joylanish qonunyatlariga rioya qilish talab etiladi. Rasm chizish usuli induvidal tarzda bo'lishi mumkin, lekin mushaklar, suyaklar, paylarning joylashish qonunyatlarini to'g'ri, bir xilda ochish kerak. Bular tasviriy san'atning ilmiy qoidalaridir. Tus berish, nisbatlar, shaklning konstruktiv asoslari haqida ham shularni aytish mumkin.

Portret janrining o'ziga hos hususiyatlari

Tasviriy san'atning bu janriga aniq bir inson (yoki guruh kishilar)ning tashqi qiyofasi tasvirlangan asarlar kiritildi. Har bir portret o'zida portreti ishlangan insongagina xos bo'lgan belgilarni ifoda etadi. Janrning o'zini nomi qadim fransuz so'zidan kelib chiqqan bo'lib «qanday belgi bo'lsa, o'shanday tasvirlash» degan ma'noni bildiradi.

Portret san'ati bir necha ming yillik tarixga ega. Qadimgi Misrda haykaltaroshlar haykallarda odamning ichki hissiyotlariga chuqur kirib bormasalarda, allaqachonoq uning tashqi qiyofasini etarli aniqlik bilan o'xshatganlar. Grek ustalari esa xudolar va afsonaviy qahramonlarning, shoir, faylasuf va jamoat arboblarning siymolarni ideallashtirilgan holda tasvirlab, o'zlarining go'zallik olamiga munosabatlarini plastik echim bilan ifodalaganlar. Keskin psixologik karakterliligi, hayron qolarli darajada haqqoniyliigi bilan qadimiy Rim portret-haykallari ham alohida ajratib turadi. O'zining paydo bo'lishi bilan buyuk yangilik bo'lgan timsoliy-ramziy ahamiyatga molik bo'lgan portretlar Misrda eramizdan avvalgi IV asrlarda yaratilgan rangtasvir portretlari ishlanganligi ma'lum bo'ldi. Keyinroq bu portretlar ular topilgan joyni nomi bilan «fayum portretlari» deb atadilar.

Britaniya muzeyida saqlanayotgan noma'lum rassom tomonidan ishlangan Bobur portreti ham mashhurdir. Mahmud Muzahhab ishlagan Alisher Navoiy portreti musavvirning yuksak mahoratidan darak beradi. Bu asar Tehrondagi Shahanshoh kutubxonasida saqlanmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek portretchi rassomlaridan Lutfulla Abdullaev, Abdulhaq Abdullaev, Rahim Ahmedov, Malik Nabievlar samarali ijod qildirlar. L.Abdullaevning «Mulla To'ychi Toshmuhamedov», «Yo'ldosh Oxunboboev portreti» kabi asarlari realistik an'analardan foydalanib mohirona ishlangan .

Portret kompozitsiyasida milliylik

Portret kompozitsiyasi insonlar haqida uning go'zalligi, xarakteri, ideallari va orzu umidlari haqida hikoya qiladi.

Portretchi rassom inson xarakteri va uning o'ziga xosligi ustida ishlaydi. Bu esa rassomdan chuqur bilim talab qiladi, tasvirlanuvchi haqida hamma narsani, uning yuz elementlarini har tomonlama xarakterli holatlarini, eng asosiysi esa, haqqoniy, tushunarli va obrazli ifodalay bilishni talab etadi.

Insonni haqqoniy tasvirlamoq uchun uni diqqat-e'tibor bilan uzoq muddat kuzatmoq kerak, shunday holat, shunday vaziyatni va shunday kayfiyatni topish kerakki, xarakterning xususiyati, sifatini to'liq ifodalash mumkin bo'lsin.

Portretda tasvirlanuvchining individual belgilaridan tashqari uni o'rab turgan muhit, kasb-kori haqida ham eng o'rinli detallar kiritilishi kerak. Ko'plab rassomlar portret ishlaydilar, ayrimlari faqat bir kishining xarakterli xususiyatlarinigina ko'rsatadi, boshqalari portretda zamondoshlarining umumlashgan obrazlarini tasvirlaydilar. Bu holda ikkinchi xil asarlarga tomoshabinning munosabati e'tiborli, ahamiyatli bo'ladi. Haqiqiy portretchi eng xarakterli qiyofa izlaydi, natijada tevarak-atrofnii kuzatish va o'rganish bilan bitta qiyofa bilan bir necha odamlarning xususiyatlarini birlashtiradi.

Rassom shunday portret kompozitsiyasini topishi zarurki, tasvirlanuvchining xarakterli belgilarining aniq, tushunarli va obrazini ochib bersin.

Portret san'atida o'xshashlik bo'lishi shart. Natura bilan u o'xshamasa portret xisoblanmaydi. Portret - eng avvalo xujjat. Lekin bu xujjatlilik fotosuratning tasodifiy xujjatliligidan farqli o'laroq, insonning eng harakterli belgilarinigina beradi. Portretdagi o'xshashlik tashqi belgilarini va odam xarakterining ko'zga tashlanuvchi sifatlarini umumlashtirish natijasida kelib chiqadi.

Aslida portretda odamning psixologiyasi, uning hislari va orzulari yuzaga chiqishi kerak. Portret mazmuniga ko'ra, kompozitsion echimni tanlanishiga qarab, bosh qism portreti, ko'krak qiyofali portret (byust), yarim gavdali portret, to'liq gavdali portret, portret-kartina, guruhli portret, avtoportret, miniatyuraviy portret va boshqalarga bo'linadi.

Darsni mustahkamlash uchun savollar.

1. O'zbek portretchiligi birinchi namoyondalari kimlar?
2. Zamondoshlari portreti galereyasini qilgan o'zbek rassomi kim?
3. Beruniy portreti muallifi kim?
4. Zamonaviy o'zbek portretchi rassomlaridan kimlarni bilasiz?
5. Avtoportretlar ishlagan qaysi rassomlarni bilasiz?

Dars mavzusiga oid mustaqil ish vazifalari.

(Uy vazifalari)

Topshiriq: Qalamtasvirning turli janriga oid rassomlar asarlari reproduksiyalaridan yig'ish. O'tilgan mavzu asosida qalamtasvir avtoportretni ishlash. Mavzu asosida homaki rasmlar bajariladi. Material: karton, qog'oz, qalam, o'chirgich, molbert kabilar.

Umumiy xulosa

Voqelikka bo'lgan estetik munosabat inson mehnati va faoliyati tarixining barcha bosqichlarida rivojlanib kelgan. Inson azaldan ham o'z makonini bezashga, uni ammoviy san'at namunalari bilan boyitishga harakat qilgan. Hozirda ham shunday.

O'zbekiston tasviriy san'ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi. Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Bizning rassomlarimiz ko'pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar, manzara, natyurmort, portret va boshqa. Natyurmortda bozorlarimizning to'lib toshgan noz-ne'matlarini, manzara janrida esa, o'lkamizning go'zalligini va bepoyonligini, oddiy tabiat ko'rinishidagi go'zallikni to'laqonli ifodalashga harakat qilganlar. Portret janrida esa Vatanimizning ilg'or kishilarini, mehnatkash xalqni, shoir, rassom, musiqachilarni tasvirladilar.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'limdagi barcha ishlar komil inson ma'naviyatini rivojlantrish bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilar oldida ham mashaqqatli, ammo sharafligi bo'lgan ishlar turibdiki, ular yetishib kelayotgan yosh yigit qizlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda ta'lim tarbiya berishi, bugungi kunning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Avvalo tasviriy san'atda tasvirlashni o'rganishda va turli tasviriy san'at asarlarini yaratishda oddiy qalamda foydalaniladi. Bitiruv malakaviy ishimizning portret janri bilan bog'liq tamoni bo'lganligi sababli u haqida qisqacha ma'lumot berib o'tish kerak deb uyladik.

Portret – tasviriy san'at janrlari ichida eng qadimiylaridan bo'lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san'at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruxiyatini asarda talqin etadi.

Avtoportret - portret janrining ko'rinishlaridan biri bo'lib, musavvir o'zining tashqi qiyofasini o'zi tasvirlaydi.

Portret janrida inson obrazini yaratish eng murakkab ish hisoblanadi. O'quv vazifalari portret va avtoportret san'ati egallashga ko'maklashadi. Odam boshini tasvirlash prinsiplarini yaxshi o'zlashtirib olgandan so'ng yanada murakkabroq vazifaga – ijodiy portret yaratishga o'tish mumkin.

Portret janrida rasmni chizishni o'rganishda avtoportretlar ishlashning ahamiyati kattadi. Bu janrda ijod qilgan rassomlar hayoti va ijodini o'rgansak bunga amin bo'lamiz. Evropa muzeylarida Golbeyn, Rembrant, Titsian, Rafael, Baticelli kabi zabardast tasviriy san'at ustalarining yaratgan noyob asarlari saqlanmoqda. Hamma ulug'lar kabi Rembrant ham ijodda mehnatkash, serunum edi. Faqat Avtoportretlarini o'zi 60 tadan ortiq edi. Odam yuz qiyofasini tuzilishi, tasvir vositasi soya yorug'larni joylashishi psixologik holatini chuqur o'rganishni asosiy vazifa deb bilardi.

Rassom portret va avtoportret ishlash jarayonida bosh shakli qurilishi qonunyatlarini bilmasa naturadan passiv nusxa ko'chiruvchi bo'lib qoladi. Haqiqiy ijod erkinligiga erishish uchun rassom ilmiy bilim bilan qurollanishi zarur. Qalamtasvirda avtoportret chizishga kirishishdan oldin kalla suyagi va uning mushak bilan qoplanishi xususiyatlarini asoslovchi anatomiya va boshqa fanlar qonunyatlarini o'rganish kerak. Odam boshining anatomik qurilishini tahlil qilish bilan birga, tasvirda inson boshi va mushaklarning joylanish qonunyatlariga rioya qilish talab etiladi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilar nafaqat o'zlari yaxshi rasm chiza olishlari, balki o'z bilimlarini dars jarayonida kelajak yoshlarga ham yetkaza olishlari kerak. Shu bilan birga, o'qituvchi amalga oshirishi lozim bo'lgan har qanday tadbirdan ko'zda tutilgan maqsadni aniq va real belgilashi va uni amalga oshirish yo'llarini to'g'ri belgilay olishi kerak.

Men o'zinning bitiruv malakaviy ishimning yozma qismida qalamtasvirda portret chizishning umumiy tamonlari, qalamtasvirda avtopartret ishlash va o'qitish metodikasi haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy qismida "Qalamtasvirda avtoportret" kompozitsiyasini ishlashga harakat qildim. Unda quyidagilarga e'tibor qarattim. Tasvirini qog'azga to'g'ri joylashtrish, tana bo'laklari nisbatlarini to'g'ri aniqlash, gavda konstruktiv tuzilishini to'g'ri tasvirlash, yorug'-soya munosabatlarini yaxlit tasvirlash, yakuniy bosqichda ishlov berish va boshqalar. Ushbu qalamtasvir avtoportreti 70x50 o'lchamdagi oq qog'ozga tasvirlangan.

O'zbekiston diyorini yanada ko'rkam va chiroyli bo'lishi, kelajak avlodni barkamol insonlar bo'lib yetishishi, tasviriy san'atni yanada rivojlantirish, biz yoshlarni bo'lajak o'qituvchilari zimmasiga ekanligidan faxrlanaman. Ilm sirlarini, tasvirlash sirlarini bizga chuqur va mukammal o'rgatgan barcha ustozlarimizga o'zimizning samimiy minnaddorchiligimizni bildiramiz.

Taklif va tavsiyalar

Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida qalamtasvirda avtopartret ishlash mavzusida rasm chizish talabalarning ko'rish xotirasi, borliqni idrok etish, go'zallikni his qila bilish, ma'naviy dunyo qarashini kengayishi, mehnat qilish qobilyatini rivojlanishi, vatanga muhabbat kabi juda ko'plab ijobiy qobilyatlarini rivojlanishida xizmat qiladi.

Bizning ishimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o'tamiz.

- Tasviriy san'at fani badiiy tarbiyaning asosini tashkil etadi uni o'qitish orqali talabalarda estetik tarbiyani shakllantirish.
- Tasviriy san'atni o'qitishning asosiy maqsadi turli narsalarning tasvirini amaliy holda bajara olishga o'rganish va kompozitsiyalar tuzish.

- “Qalamtasvirda avtopartret ishlash” mavzusi asosida rasm ishlashda tasvirlashning asosiy qonun-qoidalaridan, tasvirlash quollaridan o‘rinli foydalanish kerak.
- Qalamtasvirda kompozitsiya chizish bo‘yoq bilan ishlashda o‘ziga xos “ko‘prik” bo‘lib, bo‘lajak mutaxasislarning, chuqur atroflicha bilim olishlarida asos bo‘ladi.
- Qalamtasvir mashg‘ulotlarini tajribali musavvirlar, pedagoglar olib borishini ta‘minlash muvafaqiyatlar garovidir.
- Yoshlarga qalamtasvir orqali estetik idrok etishni o‘rgatish, ijodiy qobiliyatini shakillantirish; amaliy rasm chizishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, yoshlarni tabiatga nisbatan yaxshi munosabatni rivojlantirish, jamiyatimiz, davlatimiz istiqboliga hissa qo‘shadigan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash kerak bo‘ladi.

Atamalarning izohli lug'ati

Amaliy grafika – grafika san'ati turlaridan biri. Turli xildagi tabrik xatlari, markalar, etiketkalar - shirinliklarni o'raydigan qog'ozlarni bezash san'ati.

Animalist- (lot.animal- hayvon)– hayvon va jonivorlar aks ettirilgan rasm, surat, haykallar bo'yicha mutaxassis rassom, haykaltarosh.

Animal janr - hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san'at turi.

Ansambl - (frants. ensemble–birlik, uyg'unlik, ohangdoshlik) – arxitekturada – bir xildagi arxitektura kompozitsiyasini tashkil etuvchi imoratlar yig'indisi.

Applikatsiya – (lot. applicatio - yopishtirish) – gazlama, qog'oz va boshqa materiallarga rang-barang gazlama, qog'oz bo'laklari, donli o'simliklar poyalarini yelimlash yo'li bilan naqsh tuzib, badiiy tasvir yaratish.

Arxitektura - qurilish san'ati, me'morchilik, inshootlarni loyihalash ilmi. Masalan, Samarqand arxitekturasi.

Asosiy ranglar – rassomlikda asosiy deb qabul qilingan uchta rang - qizil, sariq va ko'k.

Afisha – (frants. affiche - e'lon) spektakl, kontsert va boshqa madaniy tadbirlar, tomoshalar, to'g'risida xabar beruvchi maxsus e'lon.

Axromatik rang– (yunon. achrimatos - rangsiz) bu ranglar bir biridan yorug'lik kuch bilan farq qiladilar. Axromatik ranglarga oq, qora va kul rangning barcha turlari kiradi.

Axta– xitoy qog'ozi.

Baget- portret, rasm va shu kabilar solinadigan to'rtburchakli moslama.

Barel'ef- (frants. bas-relief) past rel'ef– haykaltaroshlikda rel'ef turi – tekis yuzadan ko'tarilib turadigan, tasvirlar qalinligining yarmidan kami bo'rtib chiqqan bo'ladi. Tanga, medal' va znachoklar bunga misol bo'la oladi.

Batal janri – (frants. bataille – jang, urish) – tasviriy san'atning jang, urush manzaralarini aks ettiruvchi turi.

Bezak – biror narsaga ishlangan naqsh, ziynat, parдоз.

Vatman - vatman qog'oz, chizma va rasm chizish uchun ishlatiladigan yuqori navli qalin oq qog'oz.

Varaxsha - Buxoro yaqinidagi joy. Bu erda III-IV asrlarda saroy qurilgan, uning devoriga bo'rtma ganch naqshlar ishlashgan. Naqshlar odamlar boshini, hayvonlar, qushlar, baliqlar va har xil o'simliklar shaklini ifodalagan bo'lib, ular juda jonli va ta'sirli chiqqan.

Gravyura – (frants.graver-o'yish) grafika turi. Gravyura metall, yog'och, linoleum, tosh va boshqalarga maxsus asboblardan yoki kimyoviy vositalardan orqali bo'rtma yoki o'yma qilib tayyorlanadi.

Grafika - yunon (grafikus-tasvirlangan, aks ettirilgan), tasviriy san'at turi. Unga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mazmunli rasmlar, plakatlar, markalar va shu kabilar kiradi.

Grizayl-(frants. grisale, gris- kul rang) - bir rang bilan turli och, toq, nim rang qilib, ko'pincha kul rang bo'yoqda yaratilgan rasm. Asosan devoriy rasmlar rel'efli bo'lib ko'rinishi uchun shu tarzda ishlanadi.

Dizayn- kundalik hayot, turmushda ishlatiladigan buyumlar, kiyim-kechak, asbob-uskuna, idish-tovoq mebel va shunga o'xshash narsalarni qulay, chiroyli shakl va rangini, yangi shakl-shamoyil yaratish san'ati.

Yoruflik va soya – narsalarning shaklini va hajmini to'g'ri bajarishda yorug' va soya qonunlari muhim ahamiyatga ega. Yorug'lik va soya majmuasi quyidagi: yorug'lik, yarim soya, soya, refleks, shu'la.

Janr – (frants.- tur, ko'rinish). Tasviriy san'atda janr deyilganda, chegaralangan mavzuni o'zida aks ettiradigan san'at asarlari tushuniladi.

Illyustratsiya (lotn. illuustratsion -yoritish, ko'rgazmali tasvirlash) - kitob, jurnal, gazeta matniga q'shimcha tarzda beriladigan, uni to'ldirishga, matn ma'lumotlarini ko'z o'ngida gavdalantirishga xizmat qiladigan surat, rasm, reproduksiya, shuningdek, kartina, sxema va turli tasvirlar.

Kartina - mustaqil badiiy qiymatga ega bo'lgan tasviriy san'at asari. Romga tortilgan mato, metall yoki yog'och taxta, karton, qog'ozga moyli bo'yoq, akvarel, pastel, guash, tush, mum kabilar bilan dastgoh (mol'bert)ga o'rnatib ishlanadi. Bu ital'yancha «karta» so'zidan olingan bo'lib, “qog'oz” degan ma'noni anglatadi. Kartina so'zining dastlabki ma'nosi – ‘nozik, chiroyli, bezatilgan qog'oz.

Kolorit – (lot. kolor – rang)- tasviriy san'atda real hayotni xaqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro mutanosibligini, nisbati..

Kontrast – (frants. kontraste – keskin ziddiyat), qora rang oq rang oldida yana ham qoraroq ko'rinadi; issiq narsani sezish ketidan sovuqqa sezgirlik kuchayadi va h.k.

Kontur – (frants. Kontoir) predmetning umumiy shaklini tasvirlovchi ko'rinish, abris, chiziq.

Kompozitsiya – lot. – tuzilish, qurilish. Badiiy asarning tuzilishi, asarda tasvirlanayotgan narsalarning obrazlari va badiiy vositalarning muayyan maqsadga xizmat qiladigan tartibiy joylashishi va ularning muvofiqligi.

Linogravyura (linoleum va gravyura)-linoleum parchasiga ishlangan gravyura. Texnikasi ksilografiyaga yaqin. Ishlangan tasvirni ko'p nusxada nashr etish imkonini beradi..

Mulyaj frants. haykaltaroshlikda naturadan olingan nusxa, tabiiy mahsulotlar, odam gavdasi qismlarining sun'iy shakli.

Mu'jaz - miniatyuraviy.

Minora (arab- mayoq)- baland inshoot. Minoralar doira, ko'p qirrali, to'rtburchak shaklida bo'lib, yuqoriga tomon ingichkalashib boradi.

Mirak naqqosh –(tug'. yil noma'lum – vafoti 1507) - naqqosh, musavvir. Kamollidin Behzodning ustози (uni Sayyid Mirak, Xoja Mirak deb ham atashgan). Usta xattot bo'lgan. Xirot jome masjidi kitoblarini, ko'pgina yirik binolarni bezagan.

Musavvir /arab – rassom/- turli tasvirlar ishlovchi, rasm chizuvchi ijodkor.

Natura –(lot. natura – tabiat)- rassom, shuningdek, fotograf, kinooperatorga tasvir ob'ekti bo'lib xizmat qiladigan real, borliq (inson, narsalar, manzara va h.k.)

Palitra (frants. Palette – plastinka, planka)- rassom bo'yoq qoradigan taxtacha. Metall, chinni, ba'zan yog'ochdan tayyorlanadi. Ma'lum bir rassom, rasm uchun xarakterli bo'lgan rang, bo'yoqlar ham palitra deb yuritiladi.

Peyzaj (frants. peuz– joy, makon) - tasviriy san'at turlaridan biri. Manzara.

Perspektiva –(lot.perspitio – ravshan ko'raman) - narsalarni tekislikda tasvirlash qonun-qoidalarini o'rganuvchi amaliy fandır.

Plakat-(frants. plakard– e'lon) – ko'rgazmali targ'ibot maqsadlariga xizmat qiladigan tasviriy san'at turi. Ko'pincha, qisqa matnli bo'ladi. Kundalik hayotning eng muhim mavzularida diqqatni tortadigan qilib chiziladi va bir yoki ko'p rangli bo'ladi.

Portret - (frants.portreit - tasvir)- real borlikda mavjud bolgan yolg'iz, ikki yoki bir guruh kishilarning tasviri.

Proporitsiya- (lot.proportio – munosabat)- badiiy asarning alohida elementlari va butun asar kattalıkları munosabati.

Rakurs – (frants. raccoureir - qisqartmoq) – tasviriy san’atda turli narsalarni kishi ko’ziga olisdan ko’rinayotgandek qilib, qisqartib aks ettirish.

Realizm – voqelikni badiiy ijodning turlariga xos maxsus vositalar bilan haqqoniy, ob’ektiv tarzda aks ettirish. O’zbekiston hududida yuksak darajaga ko’tarilgan miniatyura san’atida realizm elementlari ko’zga tashlanadi.

Reklama – (lotin. reklamo - qichqiraman)- san’at asarlari va boshqalarni ommalashtirish maqsadida ma’lumot tarqatish.

Sangina –(lot. Sangumens - kondek) - qizil va qizg’ish-jigarrang qalam. Yog’och ishlatmay, temir oksidli tuproqsimon jinslardan tayyorlanadi. Tabiiy va sun’iy xillari bo’ladi. Rassomlar etyud, grafika asarlari ishlashda foydalanadilar.

San’at – arabcha atama bo’lib, hayotdagi narsa va hodisalarni badiiy obrazli tarzda aks ettiruvchi ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismi. U tasviriy va

Syujet (frants. Suiet - predmet)- tasviriy san’at asarida aks ettirilgan ma’lum voqea, vaziyat. Voqea mazmuni o’z aniq ifodasini topgani bilan (ayniqsa maishiy, tarixiy janrga mansub tasviriy san’at asarlarida) ko’zga tashlanib turadi.

Tempera (ital.temperare – bo’yoq qorish)- rassomlikda keng tarqalgan usullardan biri. Binolarni bezashda, dastgohli san’at asarlarida keng qo’llaniladi. Tempera bilan ishlangan kartinalar, bezaklar quyosh nuri va changdan yaxshi asralsa, o’z rangini, tusini yaxshi saqlab qoladi.

Tus – ohang, ranglarga nisbatan ishlatiladi.


Fon (lot. Fundus – tub, asos), zamin – kartina va grafika asari, rel’ef va naqshda asosiy shaklning orqa ko’rinishi, qo’shimcha tasvir. Buyuk rassomlar portret fonida manzara aks ettirganlar, bu bilan shaxs yashagan muhitni

ko'rsatganlar. Rel'ef va naqshda shaklning jozibador chiqishiga yordamchi vosita bo'ladi.


Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008. nashriyoti.
2. I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T., "O'zbekiston", 2000.
3. N. Oydinov. Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. T., "O'qituvchi", 1997.
4. O'zbekiston san'ati. "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T., 2001.
5. S. Uralov. Mo'jiza yaratish san'ati. T., "Mehnat", 1996
6. N. Oydinov. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T., "O'qituvchi", 1997
7. R. Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. T., G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. 2009
8. S.F.Abdurasulov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., "ILM – ZIYO", 2011
9. Baymetov B. "Qalamtasvir". Toshkent. "Musiqqa nashriyoti", 2006.
10. Baymetov B. "Qalamtasvir" Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent, 1997.
11. Baymetov B. "Qalamtasvir asoslari". O'quv qo'llanma. - Toshkent, 1999.
12. Baymetov B. "Portret qalamtasviri". O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2001.
13. Baymetov B. " Plastik anatomiya " amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2011.
14. G'. M. Abduraxmonov. Tasviriy san'at kompozitsiyasi. T., 1996


15. B.T. Maxmudov. Dasgohli rangtasvirda kompozitsiya. T., 2009
16. D. A. Nazilov. Kompozitsiya asoslari. T., “Yangi asr avlodi”, 2009
18. www.tdpu.uz
19. www.pedagog.uz
20. www.Ziyonet.uz
21. www.nbgf.intal.uz
22. tdpu-INTERNET. Ped www.nbgf.




Tabiatni tasvirlanishida perspektiva qodalaridan foydalanish.




Bosh chanog'ini qalamtavirda tasvirlanishi.



Bosh muskulini old tomondan ko'rinishi



Bosh muskulini yon tomondan ko'rinishi.



V. Serov Avtoportret. 1881-yil.




V. Serov Avtoportret. 1885-yil.



V. Serov. Qalamtasvir. 1909-yil



Leonardo da Vinchi avtoportreti. Sangina



Leonardo da Vinci. Qo'l qalamtasviri.



Rafael Santi. Qalamtasvir.




Miklanjelo . Ayol boshi tasviri. 1504-yil




Rembrant. Avtoportret. 1648-yil




Rembrant. Ona portreti. 1628-yil



K. Buryullov. Naturshik. Qalamtasvir.



I. Repin. L. N. Tolstoy. Qalamtasvir. 1891-yil



Abdulhaq Abdullayev. Qalamtasvir. 1965 – yil

MUDARIJA

Kirish:	3
I bob Qalamtasvirda portret chizishning umumiy tomonlari.....	8
1.1. Adabiyotlar tahlili.....	8
1.2. Rasm ishlashda tasvirlashning asosiy qonun- qoidalaridan foydalanish ...	12
1.3. Bosh shaklini chizish jarayonida qalamtasvirning ahamiyati.....	20
1.4. Portret ishlashni o'rganishda plastik anatomiyaning ahamiyati.....	27
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	36
II bob Qalamtasvida avtoportret ishlash va o'qitish metodikasi.....	37
2.1. Qalamtasvirda avtoportretni bosqichlar asosida chizish usullari	37
2.2. Qalamtasvirda avtoportret ishlashning shakil va usullari	47
Umumiy Xulosa.....	60
Taklif va tavsiyalar.....	62
Atamalarning izohli lug'ati.....	64
Foydalanilgan adabiyotlar.....	70
Ilova.....	72